

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

SOBIROVA ZILOLAXON MAXMUDOVNA

**NEYROPSIXOLINGVISTIKA: NAZARIY ASOSLARI HAMDA AMALIY
TATBIQI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора филологических наук (DSc)

The contents of the dissertation abstract of the Doctor of Philology (DSc)

Sobirova Zilolaxon Maxmudovna

Neuropsycholinguistics: nazariy asoslari va amaliy tatbiqi.....3

Собирова Зилолахон Махмудовна

Теоретические основы и практическое применение
нейропсихолингвистики.....37

Sobirova Zilolaxon Maxmudovna

Theoretical foundations and practical application of
neuropsycholinguistics.....75

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....75

Поалар

Приложения

Appendixes.....81

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

SOBIROVA ZILOLAXON MAXMUDOVNA

**NEYROPSIXOLINGVISTIKA: NAZARIY ASOSLARI HAMDA AMALIY
TATBIQI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.DSc/Fil779 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Farg'ona davlat universiteti veb-sayti (www.fdu.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portali www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Akbarova Zuxro Akmaljonovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Madrahimov Ixomjon Sobirovich
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Dragoy Olga Viktorovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yarashova Nasiba Jumayevna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "30" oktabr soat 8 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, B.Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy. Telefon: (99873) 244-57-82)

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (663 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19 uy. Telefon: (99873) 244-71-28.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "18" dekabr kuni tarqatildi.

(2025-yil "18" dekabr da 75 raqamli reyestr bayonnomasi).



G.Z.Rozikova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

M.T.Abdupattoyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

M.Y.Mamajonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida inson ongi va tili o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalasi turli fanlar – neyropsixologiya, psixolingvistika, kognitiv lingvistika, nevrologiya va psixoterapiya kesishgan nuqtada chuqur tadqiq etilmoqda. Ayniqsa, nutqiy faoliyatning miya bilan bog'liq neyron mexanizmlarini aniqlash, til birliklarining idrok hamda ongdagi jarayonlar bilan qanday bog'liq ekani, nutq buzilishlari va ularning neyroasoslarini aniqlash borasidagi izlanishlar zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning ilg'or yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Til va miya muammosiga neyropsixolingvistik yondashuv tilshunoslikni klassik paradigma chegarasidan olib chiqib, uni empirik va eksperimental metodlar bilan boyitadi. Xususan, tilning ontogenez va filogenezda qanday shakllanishi, tilga oid buzilishlar orqali miya faoliyati holatini aniqlash masalalari global ilmiy tadqiqot markazlarining diqqat markazida turibdi. Ushbu yondashuv maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda uchraydigan nutq buzilishlarini erta aniqlashga xizmat qiladi. Neyropsixolingvistik tahlil usullari asosida ishlab chiqilgan milliy tashxislash testlari ta'lim tizimida disleksiya, afaziya kabi o'qish, yozish va nutq buzilishlarini o'z vaqtida aniqlash hamda ularni bartaraf etishga ko'maklashadi. Shuningdek, til va neyron mexanizmlar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish amaliy tilshunoslikning rivojiga hissa qo'shib, ta'lim jarayonini individuallashtirish, logopedik va korreksion metodlarni takomillashtirishga yordam beradi. Bu esa bilingval bolalar uchun moslashtirilgan resurslar yaratish va ta'lim sifatini oshirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida bugungi globallashuv, axborotlashgan jamiyat sharoitida bolalarning kognitiv hamda nutqiy rivojlanishidagi turli buzilishlarni erta aniqlash, ularga mos reabilitatsiya va korreksiya metodlarini ishlab chiqish dolzarb vazifaga aylandi. Miyaning turli patologik holatlari (masalan, insult, miya shishi, serebral falaj) natijasida nutqiy funksiyalarning buzilishi, ularning neyron asoslari hamda tiklanish dinamikasini aniqlash bugungi kun klinik va eksperimental lingvistikasining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Moskva va Sankt-Peterburgda joylashgan "Til va miya" markazlari, Pirogov nomidagi tibbiy markazlar, xorijiy ilmiy hamkorlik asosida olib borilayotgan aytreqing, EEG, MEG asosidagi tadqiqotlar bu sohaning qanchalik dolzarb va istiqbolli ekanini isbotlamoqda. Ayniqsa, ushbu metodlar orqali bolalar nutqidagi buzilishlar (disleksiya, afaziya, autizm spektr buzilishlari)ni erta tashxislashga qaratilgan yondashuvlar neyropsixolingvistik tadqiqotlar asosida shakllanmoqda. Neyropsixolingvistika til tizimi va miyaning neyron tarmoqlari o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradi. U Broka va Vernike hududlari, shuningdek, tilning shakllanish hamda rivojlanish jarayonlarini lingvistik modelga integratsiya qiladi. Shu tariqa, tilshunoslik an'anaviy paradigmalardan chiqib, kognitiv-neyron yo'nalish sari rivojlanmoqda. Til va miya munosabatini izohlash zamonaviy tilshunoslikning yechimini kutayotgan muhim nazariy masalalaridan biri hisoblanadi.

O'zbek tilshunosligida bu yo'nalishdagi ilmiy ishlanmalar boshlang'ich bosqichda bo'lib, asosan, xorijiy modellarni tarjima qilish va ularga tayanishga

asoslangan. Bu sohadagi nazariy tadqiqotlar oz bo‘lgani sababli ularning amalga tatbiq etilishi borasidagi ishlar ham hali yetarli emas. Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish maqsadida “Oliy ta’lim tizimida o‘zbek tili ilmiy maktablarining zamonaviy metodlarini o‘rganishni yo‘lga qo‘yish, tilning rivojlanish istiqbollari bilan bog‘liq ilmiy muammolarni aniqlash, tadqiq etish”¹ kabi vazifalar belgilangan. Til birliklarini miya faoliyati bilan bog‘liq holda neyropsixolingvistik yondashuv asosida tadqiq etish, shu asosda o‘zbek tilshunosligini neyropsixolingvistikaga doir ilmiy-nazariy qarashlar va amaliy talqinlar bilan boyitish soha oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Qolaversa, inson miyasi va nutqining bog‘liqligi umumiy ravishda e’tirof etilgan bo‘lsa-da, miyaning aynan qaysi sohasi turli nutq funksiyalarini boshqarishi masalasida hali yagona ilmiy qarash shakllanmagan. Mazkur tadqiqotda ilgari surilayotgan asosiy g‘oya – til va miya faoliyati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash, lingvistik birliklarning neyropsixolingvistik tavsifini yaratish va shu asosda milliy tashxislash testini ishlab chiqish ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-6084-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari; 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar ushbu sohada innovatsion yondashuvlarni ilmiy asoslash, milliy metodikalarga yo‘naltirilgan tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash zaruratini ko‘rsatmoqda. Demak, neyropsixolingvistika doirasida til birliklarining miya faoliyati bilan aloqasini empirik metodlar orqali tadqiq etish, xususan, bolalar nutqidagi buzilishlarni lingvistik nuqtayi nazardan tashxislash va ularning neyroasoslarini aniqlash – milliy ilmiy maktablar tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan muhim ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Tadqiqot mavzusi zamonaviy fanlararo tadqiqotlar va davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari bilan hamohang ravishda shakllangan bo‘lib, tilshunoslikni yangi bosqichga olib chiqish, uni amaliy va tibbiy sohalar bilan integratsiyalashga xizmat qiluvchi alohida tadqiqotdir.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 20 октябрдаги “Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-6084-сонли фармони // Ўзбекистон қонун ҳужжатлари тўплами. 06/20/6084/1398.

shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Tilning neyrologik jihatlarini tadqiq qilish masalasida chog‘ishtirma va kognitiv tilshunoslikda bir qator ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari hamda oliy ta‘lim muassasalarida, jumladan, International Cognitive Linguistics Assosiation (AQsh), The UK Cognitive Linguistics Assosiation (Buyuk Britaniya), Rossiya Kognitiv Tilshunoslar Assotsiatsiyasi (Rossiya), Spanish Association of Cognitive Linguistics (Ispaniya), French Linguistic Association (Fransiya), New York University (AQsh), Max Planck Institute for Psycholinguistics (Niderlandiya), Barkeley University of California (AQsh), University of Manchester (Buyuk Britaniya), Beihang University (Xitoy), A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Buxoro davlat universiteti(O‘zbekiston)da olib borilmoqda.

Jahon miqyosida, jumladan, chog‘ishtirma va kognitiv tilshunoslik yo‘nalishida til inson tafakkurining ajralmas qismi ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan, olamni idrok etishning madaniy, psixologik, kommunikativ xususiyatlarga ega ekanligi aniqlangan (International Cognitive Linguistics Assosiation, AQsh), til insonning sensomotor tajribasi, diqqati va xotirasi bilan uzviy bog‘langan funksional tizim sifatida tahlil qilingan (The UK Cognitive Linguistics Assosiation, Buyuk Britaniya), til lingvistik hodisa va miyaning eng murakkab hisoblash bloki sifatida tadqiq etilib, uning neyron darajadagi amaliy va texnologik voqeligi o‘rganilishi natijasida, tilning aloqa vositasi hamda bilimlarni kodlash va saqlashdagi o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan (Rossiya Kognitiv Tilshunoslar Assotsiatsiyasi, Rossiya), neyropsixolingvistika sohasida lingvistik nazariyalarni empirik metodlar orqali tahlil qilib, ularning biologik asoslari isbotlangan (Spanish Association of Cognitive Linguistics, Ispaniya), tilning neyron asoslarini nazariy ta‘riflash bilan birga, yuqori texnologiyali tajribalar (fMRI, EEG) orqali uning harakat va idrok tizimlari bilan integratsiyasi tasdiqlangan (French Linguistic Association, Fransiya), miyaning so‘zlarni avtomatik tarzda o‘zak va qo‘shimchalarga ajratib tahlil qilishi hamda til birliklarining dinamik neyron tarmoqlari vositasida qayta ishlanishi empirik dalillar bilan isbotlangan (New York University, AQsh), nutqni anglashdagi semantik va sintaktik izchillik miyaning elektrofiziologik reaksiyalari orqali dalillangan bo‘lib, tilning qayta ishlanishi yuqori tezlikdagi dinamik neyrokognitiv jarayon ekanligi empirik tasdiqlangan (Max Planck Institute for Psycholinguistics, Niderlandiya), keng qamrovli tahlillar natijasida konseptual metaforaning til birligi

² Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. <https://msu.ru/en/> , <https://english.spbu.ru/> , <https://english.spbu.ru/>, <https://kpfu.ru/eng>, <https://www.harvard.edu>, <https://web.mit.edu>, <https://www.stanford.edu>, <https://www.indiana.edu>, <https://www.uchicago.edu>, <https://www.cam.ac.uk>, <https://www.ox.ac.uk>, <https://www.ed.ac.uk>, <https://www.mpi.nl/max-planck-institute-psycholinguistics>, <https://www.uzh.ch/en.html>, <https://www.unige.ch/en/>, <https://www.uni-leipzig.de/en>, <https://uni-tuebingen.de/en/>, <https://www.utoronto.ca>, <https://www.mcgill.ca>, <https://www.u-tokyo.ac.jp>, <https://www.kyoto-u.ac.jp/en>, <https://english.pku.edu.cn>, <https://english.bnu.edu.cn>, <https://www.unimelb.edu.au>, <https://www.uq.edu.au/users/iks.aalto.fi/tho/fikla/>; <http://www.kognitivelinguistik.org>, <http://www.uk-kla.org.uk/>, <http://ralk.info/>, <http://www.aelko.es/>, <http://www.afliko.fr/> , <http://ptjk.pl/>. (murojaat sanasi: 08.10.2023).

emas, balki tafakkur birligi ekanligi asoslangan (Barkeley University of California, AQsh), soʻzning semantik, pragmatik, psixolingvistik, kognitiv jihatlari tahlil etilgan boʻlib, soʻz yasallashida kognitiv mexanizm sifatida metaforaning oʻziga xos oʻrni mavjudligi aniqlangan (University of Manchester, Buyuk Britaniya), til lingvistik hodisa hamda miyaning eng murakkab hisoblash bloki sifatida tahlil qilinishi natijasida, uning neyron darajadagi amaliy va texnologik voqeligi toʻliq oʻrganilgan (Beihang University, Xitoy), ona tili va xorijiy tillarni oʻzlashtirishning psixolingvistik asoslari oʻrganilgan va matnni idrok etish (persepsiya) jarayonida inson ongida kechadigan kognitiv operatsiyalar hamda mazmuniy tuzilmalarni shakllantirish mexanizmlari tadqiq qilingan (A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti), til lingvistik hodisa va miyaning eng murakkab hisoblash bloki sifatida talqin qilinishi natijasida, uning neyron darajadagi amaliy voqeligi, aloqa vositasi hamda bilimlarni kodlash va saqlashdagi oʻziga xos xususiyatlari ochiqqlangan (Buxoro davlat universiteti).

Hozirda dunyo tilshunosligida til va tafakkur munosabati doirasida quyidagi asosiy yoʻnalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: kognitiv semantika, kognitiv stilistika, korpus tilshunosligi, soʻz yasallashining konseptual asosi, tilning kognitiv, kommunikativ hamda interpretatsion vazifalari, koʻchma maʼnoli til birliklarining kognitiv jihati tadqiq qilinmoqda.

Kognitiv metodlar asosida tilda inson omili va uni oʻrab turgan borliq bilan boʻlgan munosabatini oʻrganishga doir fanlararo yondashuv ularning oʻzaro aloqadorligini oʻrganish bilan xarakterlanadi.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida neyropsixolingvistika yoʻnalishining ilmiy poydevori P.Broka, K.Vernike, H.Hed, J.Piaje, K.Goldstein, H.Vayteker, Y.Grodzinsky, S.Pinker, A.Friederisi, K.Tompson, G.Hikok, K.Segaert, N.Xomskiy, S.Basu, J.de Karvalho Rodrigues³ kabi olimlar tadqiqotlari asosida shakllangan.

Neyrolingvistika va neyropsixolingvistika masalalari rus tilshunosligida L.Vigotskiy, A.Luriya, Y.Xomskaya, P.Dashinamayeva, A.Astayeva, O.Dragoy,

³ Broca P. Remarks on the seat of the faculty of articulated language, following an observation of aphemia (loss of speech). *Bulletin de la Société Anatomique*, 1861. – №6. – P.330-357; Wernicke C. The aphasic symptom complex. A psychological study on an anatomical basis. In G. H. Eggert (Ed.), *Memory, thought and experience*. – Karger, Basel, 1874. – P.93-97; Head H. *Aphasia and Kindred Disorders of Speech*. – England: Cambridge University Press, 1926. – P.401-407; Пиаже Ж. *Речь и мышление ребенка*. – М.: Госиздат, 1932; Goldstein K. *Language and Language Disturbances*. – New-York: Grune & Stratton, 1948; Whitaker H. *Neurolinguistics: Past, present, and future*. In *Journal of Neurolinguistics*, 2001. – № 14(2). – P.107-123.; Grodzinsky Y. *The Neurology of Syntax*. – England: Cambridge, 2000. – P.1-71; Pinker S. *The Language Instinct: How the Mind Creates Language*. – USA: William Morrow, 1994; Friederici A.D. *Towards a neural basis of auditory sentence processing // Trends in Cognitive Sciences*, 2002. – Volume 6. – P.78-84; Cynthia K. Thompson, Lewis P. Shapiro *The Role of Syntactic Complexity in Treatment of Sentence Deficits in Agrammatic Aphasia // The Complexity Account of. Journal of Speech, Language, and Hearing Research*, 2003. – Volume 46. – P.591-607; Hickok G. Poeppel D. *The cortical organization of speech processing // Nature Reviews Neuroscience*, 2007. – №8(5). – P.393-402; Hagoort P. *Human language: From genes and brains to behavior*. – Cambridge, MA: MIT Press, 2019; Scott S.K., Johnsrude I.S. *The Neuroanatomical and Functional Organization of Speech Perception // Nature Neuroscience*, 2003. – P.100-107; Segart K., Et al. *Language Production: Cognitive and Neural Aspects // Annual Review of Psychology*, 2012; Subhash Chandra Basu. *Hindi language acquisition in vernacular context among children with dyslexia. Doctor of philosophy*. – Chandigarh, 2019; J.de Carvalho Rodrigues. *Triagem cognitiva nas doenças cerebrovasculares: processo de construção e propriedades psicométricas do instrumento triacog. Tese apresentada como exigência parcial para obtenção do título de Doutor em Psicologia pelo*. – Porto Alegre, 2017.

R.Bastiaanse, S.Dorofeyeva, M.Toneva⁴ kabi olimlar tomonidan monografik ko‘lamda tadqiq etilgan.

O‘zbek tilshunosligida psixolingvistika va neyrolingvistika masalalariga A.Nurmonov, N.Mahmudov, Sh.Shaxobiddinova, I.Hojaliyev, Z.Akbarova⁵ kabi olimlarning tadqiqotlarida munosabat bildirilgan bo‘lsa, S.Mo‘minov, I.Azimova, A.Muxitdinov, R.Bobokalonov, Sh.Nematova kabi qator tilshunoslar tomonidan tadqiq qilingan⁶. Lekin shunga qaramay, o‘zbek tilshunosligida bugungi kunga qadar olib borilgan ilmiy izlanishlarda neyropsixolingvistika doirasida til birliklarining miya faoliyati bilan bog‘liq mexanizmlari empirik metodlar asosida maxsus tadqiq etilmagan. Bu esa ushbu tadqiqot mavzusining monografik tarzda o‘rganilishini taqozo etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Farg‘ona davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbek tilshunosligida neyropsixolingvistikaning nazariy va amaliy masalalari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi neyropsixolingvistik yondashuvlar asosida o‘zbek tilida mavjud til birliklarining neyropsixolingvistik xususiyatlarini aniqlash va bu orqali lingvistik hamda neyropsixologik sohalarining integratsiyasi asosida amaliy tashxislash metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

tilshunoslikda neyropsixolingvistik izlanishlarning nazariy-metodologik asoslarini yoritish;

neyropsixolingvistik atamalar tizimini standartlashtirish va me‘yorlashtirish tamoyillarini tahlil qilish;

⁴ Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Государственное социально-экономическое, 1934; Лурия А.Р. Язык и сознание. Под редакцией Е.Д. Хомской. – М.: Издательство Московского университета, 1979; Хомская Е.Д. Нейропсихология. – СПб.: Питер, 2007. – 496 с; Дашинамаева П.П. Теория значимости как основа психолингвистической концепции непереводимости. Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Иркутск, 2010; Астаева А.В. Нейропсихологическое исследование детей дошкольного возраста с нарушениями речевого развития: Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Санкт-Петербург, 2011; Dragoy O., Roelien B. “Aspects of time: Time reference and aspect production in Russian aphasic speakers”. Journal of Neurolinguistics, 2013. – P.113-128; Драгой О.В. Аспекты времени: обработка категорий времени и вида типичными и атипичными носителями языка: Дисс. ... док. филол. наук. – М., 2020; Дорофеева С.В. Речевой дефицит и дислексия: экспериментальное исследование русскоговорящих детей: Дисс. ... канд. филол. наук., 2020; Toneva M. Bridging Language in Machines with Language in the Brain. Submitted in partial fulfillment of the requirements for the degree of Doctor of Philosophy. – Pittsburgh, 2021.

⁵ Нурмонов А. Тилшуносликнинг психология билан муносабати // Танланган асарлар. 3 жилдлик. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б.164-169; Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – №5. – Б.3-16; Хожалиев И. Психоллингвистиканинг фан сифатида шаклланишига доир. ФарДУ. Илмий хабарлар. 2017. – №5. – Б.71-74; Акбарова З. Оламнинг лисоний манзарасини когнитив тадқиқ этиш: Филол. фан. д-ри (DSc). ... дисс. – Фарғона, 2021.

⁶ Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. Филол.фан. д-ри дисс. – Тошкент, 2000; Азимова И.А. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психоллингвистик тадқиқи: Филол. фан. ном... дисс. автореф. – Тошкент, 2008; Мухиддинов А.Г. Основы нейролингвистики. – Фергана: Classic, 2022; Бобокалонов Р.Р. Неразрывная связь семиотики и нейропсихоллингвистики (в изучении иностранных языков для детей с ограниченными возможностями). Монография. – Бухара, 2023; Nematova Sh. Exploring audiovisual speech perception and literacy skills in monolingual and bilingual children in Uzbekistan. A dissertation of Doctor of Philosophy in Linguistics. – Nyuarke, Delaver, 2024.

til birliklarining neyropsixolingvistik xususiyatlarini tavsiflash, semantik va kognitiv omillarini aniqlash;

neyropsixolingvistik metodlarni tashxislash va ularning amaliy qo'llanish doirasini ishlab chiqish;

milliy neyropsixolingvistik tashxislash metodikasini yaratish va sinovdan o'tkazish;

o'qishning buzilishi hamda bilingval muhitda ta'lim olayotgan bolalarni neyropsixolingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilish asosida tashxislash testlarini yaratish.

Tadqiqotning obyekti sifatida til tizimidagi neyropsixolingvistik xususiyatga ega bo'lgan til birliklari tanlangan bo'lib, ular orqali miya va til o'rtasidagi aloqadorlik ifodalangan.

Tadqiqotning predmetini til birliklarining neyropsixolingvistik xususiyatlari, ularning kognitiv va semantik o'ziga xosliklari hamda idrok bilan bog'liq til vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Mavzuni yoritishda quyidagi lingvistik va neyropsixolingvistik tahlil usullaridan foydalanilgan: lingvistik tavsiflash usuli, kognitiv modellashtirish usuli, konseptual-derivatsion, semantik, lingvostatistik, komponent tahlil hamda eksperimental tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

tilshunoslikda neyropsixolingvistika yo'nalishining nazariy-metodologik asoslari aniqlanib, til va miya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik lingvistik va neyrofiziologik yondashuvlar asosida ilmiy nuqtayi nazardan asoslangan; til birliklari inson tafakkurining ichki neyrostrukturaviy mexanizmlari bilan uzviy bog'liqlikda shakllanishi, uni qayta ishlash va idrok qilishda miyaning funksional zonalarini faol ishtirok etishi o'zbek tili asosida isbotlangan;

neyropsixolingvistik atamalar tizimlashtirilib, ular milliy kontekstda me'yorlashtirilgan va qo'llanishda bir xillikka keltirilgan; neyropsixolingvistik terminlar tavsifi ishlab chiqilgan, ularning tahliliy yondashuvlar eksperimental tadqiqotlarda qo'llanilishi tahlil qilingan; milliy ilm-fan tizimida neyropsixolingvistik tushunchalar mustahkam nazariy asosda bayon etildi hamda ularning amaliyotda qo'llanilishiga asos yaratilgan;

til birliklarining neyropsixolingvistik xususiyatini tavsiflash asosida ularning fonologik va semantik, sintaktik xususiyatlari hamda miyaning tilga oid kognitiv komponentlari bilan bog'liqligi eksperimentlar asosida aniqlangan, xususan, bolalarda og'zaki va yozma nutqni idrok etish va qayta ishlashda yuzaga keladigan lingvistik omillar hamda buzilish mexanizmlari nazariy asosda dalillangan;

neyropsixolingvistik metodlar tizimi ishlab chiqilib, ular lingvistik tahlil vositasi sifatida empirik asosda sinovdan o'tkazilgan; ayniqsa, "*DonoQiz-Uz*" milliy neyropsixolingvistik tashxislash testi asosida til tizimining neyropsixologik komponentlari real vaqt rejimida kuzatilib, miya faoliyati bilan bog'liq til jarayonlari modellashtirilgan; milliy neyropsixolingvistik tashxislash metodikasi yaratilgan bo'lib, u fonologik, semantik va dekodlash jarayonlaridagi individual farqlarni aniqlash imkoni tasdiqlangan;

bu metodika orqali til funksiyalarini erta bosqichda baholash, nutq buzilishlarini aniqlash va reabilitatsiya strategiyalarini taklif qilish imkoniyati vujudga keltirilgan; bolalar nutqini neyropsixolingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilish asosida test sinovlari ishlab chiqilgan va tajriba-sinovdan o'tkazilgan; "DonoQiz-Uz" milliy neyropsixolingvistik tashxislash testining psixometrik ko'rsatkichlari statistik metodlar yordamida isbotlangan, uning bilingval bolalar orasidagi semantik anglash, dekodlash darajasini aniqlashdagi sezuvchanligi va aniqligi ishonchli ko'rsatkichlar bilan asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

milliy neyropsixolingvistik testlar konsepsiyasi ishlab chiqilib, klinik tilshunoslik va logopediya sohasi uchun muhim bo'lgan diagnostika usullarining tilshunoslik asoslari shakllantirilgan;

nutq buzilishlarini baholashga oid mezonlar, bolalardagi og'zaki va yozma nutqni tahlil qilishning neyropsixolingvistik modeli yaratilgan;

"DonoQiz-Uz" milliy neyropsixolingvistik tashxislash testi kabi amaliy tashxis vositalari ishlab chiqilib, tajriba-sinovdan o'tkazilgan;

bolalarda nutqdagi buzilishlarning mezonlari "DonoQiz-Uz" milliy neyropsixolingvistik tashxislash testi asosida aniqlab berilgan va ular asosida neyrodagnostika samaradorligini oshiruvchi ko'rsatkichlar belgilangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot yuzasidan chiqarilgan xulosalar tadqiqotchi tomonidan respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-uslubiy va amaliy konferensiyalarda e'lon qilingan ilmiy ishlarda o'z ifodasini topganligi, OAK ro'yxatidagi hamda xorijiy ilmiy jurnallarda maqolalar shaklida nashr etilgani, tadqiqot natijalarining oliy ta'lim muassasalarida joriy etilishi hamda ular bo'yicha ekspert tashkilotlar tomonidan ijobiy xulosa berilgani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati neyropsixolingvistika, kognitiv semantika, psixolingvistika, umumiy va qiyosiy tilshunoslik sohalaridagi mavjud ilmiy qarashlarni yangi faktlar bilan boyitish, til birliklarining neyropsixologik tavsifini berish orqali tilshunoslikda empirik va interaktiv metodlar asosida ishlaydigan tadqiqotlar uchun nazariy manba bo'lishi bilan belgilanadi. Ayniqsa, lingvistik birliklarning miyada aks etishi va uni diagnostik jihatdan aniqlashda dissertatsiyada ishlab chiqilgan konseptual asoslar yangi ilmiy yondashuvni taqdim etadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati undan oliy ta'lim muassasalarida "Neyropsixolingvistika asoslari", "Til va miya", "Kognitiv lingvistika", "Til va tafakkur" kabi fanlar mazmunini takomillashtirish, logopediya, klinik tilshunoslik va defektologiya yo'nalishidagi o'quv dasturlari uchun amaliy darslik va qo'llanmalar yaratish, shuningdek, dissertatsiyalar, monografiyalar, maxsus lug'atlar tuzish uchun ilmiy-metodik asos bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tilshunoslikda neyropsixolingvistika yo'nalishining nazariy-metodologik asoslari aniqlanganligi, til va ong o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik lingvistik va neyrofiziologik yondashuvlar asosida ilmiy nuqtayi nazardan asoslanganligi; til birliklari inson tafakkurining ichki neyrostrukturaviy mexanizmlari bilan uzviy

bog‘liqlikda shakllanishi, uni qayta ishlash va idrok qilishda miyaning funksional zonalari faol ishtirok etishi o‘zbek tili asosida isbotlanganligi, xususan, o‘zbek tilida o‘qishni baholash uchun yaratilgan neyropsixolingvistik “*DonoQiz-Uz*” milliy neyropsixolingvistik tashxislash testi natijalari asosidagi tavsiyalar 2023-2024-yillarda Rossiyaning Milliy tadqiqot universiteti “Oliy iqtisodiyot maktabi” Til va miya markazida bajarilgan “Kattalar va bolalarda nutq buzilishining neyroanatomik asoslari” mavzusidagi EGISU-123021300281-3 raqamli ilmiy-amaliy loyihaning uslubiy asosi sifatida joriy etilgan (Milliy tadqiqot universiteti “Oliy iqtisodiyot maktabi” Til va miya markazining 2025-yil 9-iyuldagi 1-/4-son ma’lumotnomasi). Natijada til birliklari inson tafakkurining ichki neurostrukturaviy mexanizmlari bilan uzviy bog‘liqlikda shakllanishi, uni qayta ishlash va idrok qilishda miyaning funksional zonalari faol ishtirok etishi o‘zbek tili asosida isbotlangan;

neyropsixolingvistik atamalar tizimlashtirilib, ular milliy kontekstda me’yorlashtirilgan va qo‘llanishda bir xillikka keltirilgan; neyropsixolingvistik terminlar tavsifi ishlab chiqilgan, ularning tahliliy yondashuvlar va klinik-eksperimental tadqiqotlarda qo‘llanilishiga doir xulosalardan 2021-2023-yillarda O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida amalga oshirilgan “O‘zbek milliy raqs san’atini targ‘ib etishga bag‘ishlangan veb-sayt va multimedia mahsulotlari (elektron lug‘atlar) to‘plamini yaratish” mavzusidagi FZ-2019081663 raqamli ilmiy-amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2025-yil 17-iyundagi 1-04/264-son ma’lumotnomasi). Natijada loyihaning ilmiy-nazariy manbalari boyitilib, lug‘atlarning mukammallashuviga erishilgan;

til birliklarining neyropsixolingvistik xususiyatini tavsiflash asosida ularning fonologik, semantik va sintaktik xususiyatlari hamda miyaning tilga oid kognitiv komponentlari bilan bog‘liqligi eksperimental asosda aniqlangani; xususan, bolalarda og‘zaki va yozma nutqni idrok etish hamda qayta ishlashda yuzaga keladigan lingvistik xususiyatlar va ularning buzilish mexanizmlariga doir xulosalardan 2022-2024-yillarda O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida amalga oshirilgan “Musiqqa va san’at o‘quv muassasalari uchun “Bolalar raqslari” fanidan interaktiv o‘quv-metodik qo‘llanmalar yaratish” mavzusidagi F3-2019081773-raqamli fundamental loyihani bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2025-yil 17-iyundagi 1-04/263-son ma’lumotnomasi). Natijada dissertatsiya xulosalari loyiha doirasida yaratilgan o‘quv-metodik qo‘llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilgan;

neyropsixolingvistik metodlar tizimi ishlab chiqilib, ular lingvistik tahlil vositasi sifatida empirik asosda sinovdan o‘tkazilganligi; ayniqsa, “*DonoQiz-Uz*” testi asosida til tizimining neyropsixologik komponentlari real vaqt rejimida kuzatilib, miya faoliyati bilan bog‘liq til jarayonlari modellashtirilganligiga doir xulosa tavsiyalardan 2022-2024-yillarda Farg‘ona davlat universitetida bajarilgan “English Access microscholarship program” mavzusidagi xalqaro loyihani bajarishda foydalanilgan (Farg‘ona davlat universitetining 2025-yil 3-iyuldagi 04/6210-son ma’lumotnomasi). Natijada loyihaning nazariy asosini mustahkamlashga erishilgan;

milliy neyropsixolingvistik tashxislash metodikasi yaratilgan bo‘lib, unda fonologik, semantik va dekodlash jarayonlaridagi individual farqlarni aniqlashga doir xulosalaridan 2022-2023-yillarga Farg‘ona davlat universitetida bajarilgan AL-FDU2022307-010 raqamli “Lingvistik tahrir va tarjimashunoslik” ilmiy-tadqiqot markazida “Anti plagiat” dasturini amaliyotga joriy etishda, ilmiy-amaliy loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Farg‘ona davlat universitetining 2025-yil 15-iyuldagi 04/6496-son ma’lumotnomasi). Natijada ushbu metodikaning ilmiy va amaliy jihatdan samarali ekanligi isbotlangan;

bolalar nutqini neyropsixolingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilish asosida test sinovlari ishlab chiqilganligi va tajriba-sinovdan o‘tkazilganligi; “*DonoQiz-Uz*” testining psixometrik ko‘rsatkichlari statistik metodlar yordamida isbotlanganligi, uning bilingval bolalar orasidagi semantik anglash, dekodlash darajasini aniqlashdagi sezuvchanligi va aniqligining ishonchli ko‘rsatkichlari haqidagi xulosalardan 2024-2025-yillarda O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanalining “Bedorlik”, “Ijod zavqi”, “Ta’lim va taraqqiyot”, “Millat va ma’naviyat” eshittirishlari ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 17-iyundagi 26-36-1011-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur eshittirishlar yurtdoshlarimiz, xususan, yosh avlod orasida neyropsixolingvistik metodlar haqidagi bilimlarning oshishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalar 5 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 25 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, shundan 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola, ulardan 10 tasi respublika hamda 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 258 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganlik darajasi tahlili, maqsad va vazifalari berilgan, obyekt va predmeti tavsiflangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, joriylanishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Neyropsixolingvistikaning nazariy-metodologik asoslari**” deb nomlangan. Uning “*Neyropsixolingvistikaning konseptual-nazariy asoslari*” deb nomlangan birinchi faslida neyropsixolingvistikaning konseptual-nazariy asoslari, psixologik metodologiyasi

va kognitiv-lingvistik talqini ko'rib chiqiladi.

Neyropsixolingvistika zamonaviy fanlararo tadqiqotlarning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lib, inson nutqining neyrologik, psixologik va lingvistik jihatlarini kompleks o'rganadi. Bu fan sohasi XX asrning ikkinchi yarmida shakllanib, bugungi kunda inson kognitiv faoliyatining eng murakkab mexanizmlarini ochib berishda muhim o'rin tutadi.

Neyropsixolingvistikaning konseptual asoslari bir necha fundamental tamoyillarga asoslanadi. Birinchidan, nutq faoliyati miyaning turli strukturalarining muvofiqlashtirilgan tarzda ishlashi natijasida amalga oshadi. Ikkinchidan, nutq va fikrlash jarayonlari bir-biri bilan ajralmas bog'liqlikda bo'lib, ularning buzilishi odamning ijtimoiy moslashuviga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Uchinchidan, nutqning shakllanishi va rivojlanishi ontogenetik jihatdan ma'lum qonuniyatlarga bo'ysunadi.

Zamonaviy neyropsixolingvistik yondashuvlar nutqni izolyatsiya qilingan hodisa sifatida emas, balki umumiy kognitiv arxitekturaning ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqadi⁷. Bu nuqtayi nazar nutq buzilishlarini davolash va korreksiya qilishda yangi imkoniyatlar ochadi, chunki nutq tizimining plastikligi va kompensator mexanizmlarini hisobga olishga imkon beradi⁸.

Neyropsixolingvistikaning nazariy asoslari bir necha ilmiy paradigmalarning sintezi asosida shakllanadi. Klassik neyropsixologiya an'analari L.S.Vigotskiy va A.R.Luriya tomonidan yaratilgan konseptual ramka⁹, zamonaviy kognitiv neyrobilimning yutuqlari¹⁰ va eksperimental lingvistikaning metodologik asoslari¹¹ ushbu fanning mustahkam nazariy bazasini tashkil etadi. Neyropsixolingvistikaning nazariy konsepsiyasida miyaning funksional tashkil etilishi markaziy o'rinni egallaydi. Bu yondashuv bo'yicha nutq funksiyalari miyaning alohida anatomik hududlariga lokalizatsiya qilinmaydi, balki funksional tizimlar sifatida tashkil etiladi. Har bir funksional tizim turli miya strukturalarining dinamik hamkorligi asosida faoliyat yuritadi va ma'lum maqsadga yo'naltirilgan vazifani bajaradi¹².

Konseptual jihatdan muhim bo'lgan masala – bu nutqning ikki tomoni: impressiv (tushunish) va ekspressiv (ifoda etish) komponentlarining o'zaro bog'liqligi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu ikki jarayon bir xil neyron tarmoqlarni ishlatadi, ammo turli yo'nalishlarda faollashadi. Bu holat nutq buzilishlarining klinik tasvirini tushunishda va terapevtik strategiyalarni rejalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Til va ong bog'liqligi masalasi tilshunoslikning nazariy asoslaridan biridir. Biroq shu paytgacha bu borada yakdil fikrga kelingan deb bo'lmaydi. Ong, tafakkur (сознание, мышление, разум...) kabi atamalarning qo'llanishi o'ziga

⁷ Корнев А.Н. Нарушения чтения и письма у детей. – СПб., 1997. – С.78-95.

⁸ Бернштейн Н.А. Физиология движений и активность. – М.: Наука, 1990. – С.234-251.

⁹ Лурия А.Р. Язык и сознание. Ростов: Феникс, 1998. – С.156; Выготский Л.С. Собрание сочинений. Т. 2. Проблемы общей психологии. – М.: Педагогика, 1982. – С.345.

¹⁰ Kemmerer D. Cognitive Neuroscience of Language. – New York: Psychology Press, 2015. – P.123-145.

¹¹ Harley T.A. The Psychology of Language: From Data to Theory. – Hove: Psychology Press, 2014. – P.267-289.

¹² Микадзе Ю.В. Нейропсихология детского возраста. – СПб.: Питер, 2008. – С.156.

xos. Bu atamalarni sinonim sifatida ko‘rish ham, har birini farqlab qo‘llash ham uchrab turadi.

Tafakkur odatda faoliyat, ong esa uning natijasi sifatida talqin qilinadi. Tafakkur tabiatan nutq bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, insonning boshqa mavjudotlardan farqlanishi ham ana shu tafakkur, ong va nutqning birligi orqali namoyon bo‘ladi. Tafakkur va ongning falsafiy talqini hamda maishiy talqini bir-biriga yaqin, ammo farqli jihatlar ham bor. Bunday farqli va o‘xshash jihatlar lug‘atlarda to‘liq ochib berilgan, deyish qiyin.

Til sohibi dunyo haqidagi bilimlarni olishida uning turli parametrlari ahamiyatga ega. Haqiqat asosiga qurilgan gap ham haqiqatni ifodalashi qiyin, bu qabul qiluvchi, aytuvchi va sharoit bilan bog‘liq.

Birinchi bobning “*Neyropsixolingvistikaning psixologik metodologiyasi*” deb nomlangan ikkinchi faslida inson nutq faoliyatining murakkab mexanizmlarini o‘rganishdagi kompleks yondashuvlar tahlilga tortiladi. Neyropsixolingvistikaning psixologik metodologiyasi zamonaviy fanlararo tadqiqotlarda fundamental ahamiyat kasb etadi va inson nutq faoliyatining murakkab mexanizmlarini o‘rganishda kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu metodologiya psixologik eksperimentlarning klassik an‘analari bilan zamonaviy neyroilmiy usullarning sintezi asosida shakllangan bo‘lib, nutq va kognitiv jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligini chuqur tahlil qilish imkonini beradi¹³.

Psixologik metodologiyaning asosiy tamoyillaridan biri – bu nutq faoliyatini izolyatsiya qilingan jarayon sifatida emas, balki umumiy psixik faoliyat tizimining tarkibiy qismi sifatida o‘rganishdir. Bu yondashuv nutqning kognitiv, emotsional va ijtimoiy komponentlarini bir butunlikda ko‘rib chiqishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, individual farqlar va ontogenetik rivojlanish xususiyatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologik metodologiyaning muhim jihati – bu individual va guruh darajasidagi tadqiqotlar orasidagi muvozanatni saqlashdir. Klinik holatlarni o‘rganish (keys-stadi) chuqur fenomenologik tahlilga imkon bersa¹⁴, katta namunalarda o‘tkaziladigan eksperimentlar statistik ishonchlilik va umumlashtirilishi mumkin bo‘lgan xulosalar chiqarishga yordam beradi.

Metodologik jihatdan muhim masala – bu nutq buzilishlarini o‘rganishda etik tamoyillarni saqlashdir. Bu nafaqat tadqiqot ishtirokchilarining huquqlarini himoya qilishni, balki tadqiqot natijalaridan foydalanishda ijtimoiy mas‘uliyatni ham nazarda tutadi.

Zamonaviy psixologik metodologiya, shuningdek, madaniyatlar va tillararo tadqiqotlarni o‘z ichiga oladi. Bu yondashuv nutq jarayonlarining universal va madaniyatga xos jihatlarini ajratib ko‘rsatishga imkon beradi. Ayniqsa, ko‘p tilli muhitda nutq rivojlanishi va buzilishlarini o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi.

Til va ong munosabati inson ruhiyati tadqiqotchilari – psixologlar diqqatini jalb qilmasligi mumkin emas, albatta. Inson ruhiyati ifodasi asosan uning nutqidadir. Nutq inson ruhiyatini ochib beradigina emas, aynan nutq unga ta’sir

¹³ Field A. *Discovering Statistics Using IBM SPSS Statistics*. – London: SAGE Publications, 2018. – P.234.

¹⁴ Wilson B.A. *Case Studies in Neuropsychological Rehabilitation*. – Oxford: Oxford University Press, 1999. – P.156.

qiluvchi eng muhim vositadir. Tafakkur va hissiyot ham ajralmasdir. L.S.Vigotskiy nutq-tafakkur-hissiyot determinizmi inson ruhiyati tavsifida juda muhim ekanligiga e'tibor qaratadi. Til va tafakkur determinizmi bolalikdoyoq namoyon bo'ladi. L.S.Vigotskiy bu borada tadqiqotlar olib borgan qator psixologlar qarashlarini ham izchil tahlil qilib bergan¹⁵.

J.Piajening tadqiqotlari bolaning nutqi hamda tafakkuri, uning mantig'i va dunyoqarashi haqidagi ta'limotni rivojlantirishda butun bir davrni tashkil etdi¹⁶. Ular tarixiy ahamiyatga ega, deb baho beradi. Birinchi bo'lib o'zi tomonidan ishlab chiqilgan hamda fanga kiritilgan klinik usul yordamida bolalar nutqini va tafakkurini g'ayrioddiy jasorat, o'ziga xos qamrov kengligi bilan tadqiq qildi, bolalar mantig'ining xususiyatlarini mutlaqo yangi kontekstda tizimli ravishda o'rganib chiqdi.

Nutq jarayonidagi buzilishlar insonning nafaqat muloqot imkoniyatlariga, balki uning ijtimoiy moslashuvchanligi, psixologik tavsifiga ham ta'sir ko'rsatadi. Tilning inson miya faoliyatini ifodalovchisigina emas, shakllantiruvchisi sifatida ham ko'rish keng tarqalgan.

A.R.Luriyaning "Til va ong" asari yillar o'tishi, davrlar o'zgarishiga qaramay, L.S.Vigotskiyning "Tafakkur va nutq" asari bilan bir qatorda inson ongining tili bilan munosabatiga doir fundamental asarlar qatoriga kiradi. Bu muammoga yo'naltirilgan juda ko'plab asarlar bo'lsa-da, aynan shu mualliflar sobiq ittifoq hududida yuzaga kelgan va hozir ham muayyan o'ziga xoslikni saqlab turgan ijtimoiy sharoitning psixologik talqini sharoitida til va nutq muammosini, uning ontogenezda shakllanishini, funksiyalarini, buzilishlarini, miyaning tashkil etilishini o'rgangan. Aynan ularning tadqiqotlari psixolingvistika, neyrolingvistika kabi tilshunoslik yo'nalishlari asosida turadi, o'z navbatida ular patopsixolingvistika, psixiatrik lingvistika, biolingvistika, ekolingvistika, fiziolingvistika, antropolingvistika, tibbiyot lingvistikasi, klinik lingvistikasi kabi yo'nalishlar paydo bo'lishida bevosita va bilvosita alohida o'rin tutadi. Bu fan yo'nalishlari yangi bo'lib, ularning obykti va predmeti borasidagi qarashlarda yakdillikka kelingan, deb bo'lmaydi: turlicha talqinlar uchrab turadi. Ammo tobora inson nutqi va inson tavsifi, inson nutqining uning ruhiy va jismoniy salomatligi ko'rsatkichi sifatidagi talqini, inson jismoniy kamchiliklarining uning nutqidagi akslarini farqlash, baholash hamda korreksiya qilishga qaratilgan yo'nalishlar ommalashib bormoqda.

Dissertatsiyaning birinchi bob uchinchi fasli "*Neyropsixolingvistikaning kognitiv-lingvistik talqini*" deb nomlanadi. Hozirda mavjud bo'lgan va turli holatlarda so'z orqasida qaysi aloqalar tizimi yashiringanligini obyektiv baholashga imkon beradigan usul-metodlarga, birinchi navbatda, bola rivojlanishining har bir bosqichida ongning semantik va tizimli tuzilishini baholashga e'tibor qaratadi¹⁷.

¹⁵Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Прогресс, 1996. – С.36

¹⁶Пиаже Ж. Речь и мышление ребенка. – М.: Государственное издательство, 1932. – С.27.

¹⁷Лурия А.Р. Язык и сознание. Под редакцией Е.Д. Хомской// М.: Издательство Московского университета, 1979. – С.36-76.

Har xil til tizimlarini o'rganish va ularning kognitiv qobiliyatlarga ta'siri ongli tajribalarning keng doirasini ochib beradi va inson ongining faoliyatini tartibga soluvchi chuqur tarkibiy tamoyillarni taqdim etadi. Shu tariqa, til va ong o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni yorituvchi ushbu nazariy yondashuvlar neyropsixolingvistik jarayonlarni eksperimental yo'l bilan o'rganish uchun mustahkam metodologik asos yaratadi. Shuning uchun ham nazariy modellarda belgilangan fonematik eshitish, semantik va sintaktik qayta ishlash, yodda saqlash kabi komponentlarni amalda bolalar o'qish faoliyati misolida ko'rsatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Neyropsixolingvistik tadqiqotlarda miya tomonidan tilning qayta ishlash jarayonlari fonematik eshitish, semantik anglash, sintaktik qayta ishlash, yodda saqlash va dekodlash inson ongining kognitiv tizimlari bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi¹⁸. Bu jarayonlar til faoliyatining asosiy komponentlari bo'lib, ularni tahlil qilish til va miya munosabatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Tilning kognitiv qayta ishlanish jarayonlarini amalda ko'rsatish maqsadida "*DonoQiz-Uz*" milliy neyropsixolingvistik testida qo'llanadigan ikki hikoya matni tahlil qilindi. Bunday matnlar bolalar ongida tilning grammatik, semantik va kognitiv mexanizmlarini namoyon etadi hamda "*DonoQiz-Uz*" milliy neyropsixolingvistik testini nazariy jihatdan asoslaydi.

Semantik anglash til birliklari ma'nosining kontekst asosida qayta ishlanishi bilan izohlanadi. Xususan, "*Fillar qo'rasi yaqinida shoshilinch yig'ilish o'tkazildi...*" kabi jumlada bola matndagi signallar (shoshilinchlik, asabiylik, qat'iy qaror zarurati) asosida vaziyat mazmunini va mantiqiy munosabatlarni anglaydi. Mazkur holat semantik qayta ishlash mexanizmining ishga tushishini ko'rsatadi.

Sintaktik qayta ishlash tilning grammatik tuzilishini miyada tahlil qilish hamda gap bo'laklari va ularning o'zaro munosabatlarini aniq anglash bilan bog'liq. Masalan, "*Onasi kirib kelganida Dono qiz chiroqni o'chirishga ulgurdi*" jumlasini anglash jarayonida bola fe'llar orasidagi vaqt munosabatni (ketma-ketlikni) tushunadi.

Yodda saqlash tilni qabul qilish va qayta ifodalash jarayonida muhim kognitiv komponent hisoblanadi. Matnda "*Aldash yaxshi emas, onani aldash esa o'ta ahmoqlikdir*" jumlasini bola xotirasida saqlab, keyingi vaziyatlarda qayta ishlaydi. Bu holat til orqali berilgan ma'nolarning uzoq muddatli xotirada semantik qayta tiklanishini ko'rsatadi. Ayni yondashuv O.V.Dragoy¹⁹ tadqiqotlarida ham kuzatiladi: vaqt referensiyasi va diskursga bog'liq birliklarni qayta ishlashda qayta ishlash resurslari, jumladan ishchi xotira yuklamasi muhim omil sifatida talqin qilinadi.

Til faqat anglash vositasigina emas, balki u ijodiy fikrlash jarayonini ham faollashtiradi. Masalan, "*Filni boshqa qo'raga ko'chirish kerak, xolos*" jumlasini tahlil qilish jarayonida bola vaziyatni kognitiv jihatdan baholaydi va muammoning

¹⁸ Friederici A.D. Towards a neural basis of auditory sentence processing // Trends in Cognitive Sciences, 2000. – № 6 (2). – P.78-84; Черниговская Т.В. Чеширская улыбка кота Шрёдингера: мозг, язык и сознание. – М., АСТ, 2021. – С.66.

¹⁹ Драгой О.В. Аспекты времени: обработка категорий времени и вида типичными и атипичными носителями языка: Дисс. ... док. филол. наук. – М., 2020. – С.24-37.

mantiqiy yechimini shakllantiradi. Bunda yechim taklifi (“ko‘chirish”) muammoli vaziyatga mos strategiyani tanlash va qaror chiqarish ko‘nikmasini aks ettiradi.

Fonematik eshitish va harf–tovush mosligini aniqlash dekodlashning muhim sharti hisoblanadi. Matnda “*U faqat harflarni bilar edi, ammo hammasini ham emas*” jumlasini bolaning harflarni to‘liq o‘zlashtirmaganini ko‘rsatadi; bu esa harf–tovush mosligini barqaror qo‘llash va o‘qishni dekodlash jarayonini qiyinlashtirishi mumkin.

“Dono qiz” hikoyalari asosida keltirilgan misollar til faoliyatining neyropsixolingvistik va kognitiv mexanizmlarini aniq ifodalaydi. Ular tilning fonologik, semantik, sintaktik va kognitiv jarayonlarini namoyon etib, “*DonoQiz-Uz*” milliy neyropsixolingvistik testning nazariy-metodologik asosini mustahkamlaydi.

Tadqiqotlar til, madaniyat va individual tajriba o‘rtasidagi yaqin aloqani ta’kidlaydi. Rus tadqiqotchisi A.A.Yakovlevning fikricha, “so‘zlar shunchaki obyekt va hodisalar uchun yorliqlar emas; ular bizning shaxsiy va madaniy tajribalarimizni kodlaydi; atrofimizdagi dunyo bilan o‘zaro munosabatlarimizni shakllantiradi”²⁰.

Tilshunos olim N.Mahmudov o‘rinli ta’kidlaganidek, “tilning mohiyati, vazifasi ko‘pincha benihoya jo‘n talqin etiladi. Go‘yoki til – eng muhim aloqa vositasi bo‘lgan ijtimoiy hodisa. Tilning aloqa vositasi ekanligi uning juda ko‘plab vazifalaridan faqat bittasidir. Aslida til, eng avvalo, dunyoni ko‘rish, eshitish, bilish, idrok etish vositasidir. Ayni paytda tilning ruhiy, estetik hodisa ham ekanligini unutmaslik lozim”²¹.

Har xil til tizimlarini o‘rganish va ularning kognitiv qobiliyatlarga ta’siri ongli tajribalarning keng doirasini ochib berdi va inson ongining faoliyatini tartibga soluvchi chuqur tarkibiy tamoyillarni taqdim etadi.

Ikkinchi bob “**Neyropsixolingvistik tadqiqotlar tarixi**”ni yoritishga bag‘ishlanib, uning birinchi fasli “*Neyropsixolingvistik konsepsiyalar*” tavsifini o‘z ichiga olgan. Miya insonning muloqot qobiliyatini qanday boshqarishini tushunishga oid tadqiqot sohasi terminologiyani o‘zgartirishni talab qiladi. Shuning uchun hozirgi “neyrolingvistika” atamasi bilan parallel ravishda qo‘llash uchun K.F.Sedov yangi “neyropsixolingvistika” atamasini taklif qiladi. Olim ushbu yangi atamani, birinchi navbatda, mazkur tadqiqot sohasini “umumiy psixolingvistikaning muhim tarkibiy qismi, kichik bo‘limi sifatida ko‘rib chiqish kerak”²²ligini ta’kidlaydi.

Neyropsixolingvistika miyaning inson muloqotidagi rolini tushunishga qaratilgan. U turli xil ijtimoiy vaziyatlarda nutqni takrorlashga, tushunishga imkon beradigan murakkab mexanizm va jarayonlarni tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

Neyrolingvistikaning fiziologik asoslari Nikolay Aleksandrovich Bernshteyn tomonidan taklif qilingan fiziologik faoliyat nazariyasi bilan bog‘liq²³. Bernshteyn

²⁰ Яковлев А.А. Модальность и эмоции в вербализации образов преподавателя и студента // Вестн. Новосиб. гос. ун-та. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация, 2017. – Т.15. – №3. – С.5-20.

²¹ Махмудов Н. Тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1998. – Б.8.

²² Седов К.Ф. Нейропсихоллингвистика. – М.: Лабиринт, 2007. – С.7.

²³ Бернштейн Н.А. Физиология движения и активность. Сборник. – М.: Наука, 1990. – С.463-478.

nazariyasi G'arbda keng tarqalgan reaktivlik konsepsiyasiga qarshi chiqdi, bu inson xatti-harakatlarini, birinchi navbatda, stimullarga reaksiya sifatida ko'rib chiqdi.

U harakat, nazorat va tuzatish mexanizmlarini asab tizimida iyerarxik tarzda tashkil etishni taklif qildi. Uning fikricha, "ushbu iyerarxik tuzilma xatti-harakatlarni bir vaqtning o'zida barcha darajalarda emas, balki eng yuqori darajalarda sozlash imkonini beradi"²⁴.

K.F.Sedov miya apparati tarkibida aqliy faoliyatning barcha shakllarida ishtirok etadigan uchta asosiy funksional birlikni aniqladi: 1) qo'zg'alish yoki uyg'onishni tartibga solish uchun mas'ul bo'lgan birlik; 2) tashqi muhitdan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash va saqlash uchun mas'ul bo'lgan birlik; 3) aqliy faoliyatni dasturlash, tartibga solish va boshqarish uchun mas'ul bo'lgan birlik²⁵.

Mashhur rus fiziologi I.P.Pavlov bunday optimal holatga asoslangan asosiy neyrodinamik tamoyillarni ochib berdi. Uning ta'kidlashicha, miyaning uyg'onish korteksida sodir bo'ladigan qo'zg'alish hamda tormozlanish (to'xtab qolish) jarayonlari kuch qonuniga bo'ysunadi va ma'lum bir konsentratsiya, muvozanat va harakatchanlik bilan tavsiflanadi. Miya yarim korteksining optimal tonusi uzluksiz aqliy faoliyat uchun juda muhimdir.

"Bosh miya po'stlog'i tonusini yaratish va tartibga solish uchun mas'ul bo'lgan mexanizmlar miyaning o'zida emas, balki miya po'stlog'i va po'stloqosti tuzilmalarda joylashgan bo'lishi mumkin. Ushbu mexanizmlar bosh miya po'stlog'i bilan ikki tomonlama aloqani saqlaydi, bir vaqtning o'zida unga ta'sir qiladi va undan normativ mulohazalarni oladi"²⁶. Yuqorida aytib o'tilganlardan tashqari, A.R.Luriya konsepsiyasi doirasida faollashtirishning uchinchi va eng muhim manbasi paydo bo'ladi. Ushbu manba insonning ongli hayoti davomida paydo bo'ladigan niyat, reja, istiqbol va dasturlarini qamrab oladi. Aynan ular birinchi navbatda tashqi, keyin esa ichki nutqning bevosita ishtirokida amalga oshirilishi mumkin²⁷.

A.R.Luriya neyropsixologik konsepsiyasida xulq-atvor va faoliyat tushunchasini kelajakka yo'naltirilgan harakatlar sifatida doimiy ravishda ta'kidlab, faoliyatni tirik organizmlarning asosiy xususiyati sifatida ko'rib chiqadi. A.R.Luriyaga ko'ra, "nutqda shakllangan har bir tushuncha aniq maqsadni ko'zlaydi va ushbu maqsadga erishishga qaratilgan kompleks harakatlar dasturini boshlaydi"²⁸.

Neyropsixolingvistikadagi eng muhim kashfiyotlardan biri bu nutq uchun mas'ul bo'lgan miyaning o'ziga xos hududlarini aniqlashdir. Fransuz shifokori Pol Brokning nomi bilan atalgan Brok zonasi chap frontal peshana qismida joylashgan va nutq ishlab chiqarish uchun juda muhimdir. Ushbu hududning shikastlanishi Brokning afaziyasiga olib kelishi mumkin, bu sekin, vaqti-vaqti bilan gapirish va

²⁴ Бернштейн Н.А. Биомеханика и физиология движений. – М.: Воронеж, 1997. – С.55.

²⁵ Седов К.Ф. Нейропсихоллингвистика. – М.: Лабиринт, 2007. – С.45-52.

²⁶ Лурия А.Р. Основы нейропсихологии. – М.: МГУ, 1973. – С.86.

²⁷ Седов К.Ф. Нейропсихоллингвистика. – М.: Лабиринт, 2007. – С.45-52.

²⁸ Лурия А.Р. Основы нейропсихологии. – М.: МГУ, 1973. – С.96.

jumlalarni tuzishda qiyinchiliklar bilan tavsiflanadi, ammo tushunish nisbatan o'zgarishsiz qoladi.

Boshqa tomondan, Karl Vernike tomonidan aniqlangan Vernike zonasi chap temporal peshana qismida joylashgan va nutqni tushunish uchun zarurdir. Ushbu hududga zarar yetkazgan odamlar ko'pincha Vernike afaziyasidan aziyat chekishadi, bu yerda ular ravon, ammo ma'nosiz nutq so'zlashlari va og'zaki nutqni tushunishda qiynalishlari mumkin.

Ontogenezning dastlabki bosqichlarida miyaning shikastlanishi bolalarning kognitiv rivojlanishi va o'rganish qobiliyatiga zararli ta'sir ko'rsatadi. Maktabda bunday bolalar o'quv dasturini o'zlashtirishda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishadi, bu esa oxir-oqibat nafaqat akademik muvaffaqiyatsizlikka, balki maktabga salbiy munosabatni shakllantirishga, o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishiga va ota-ona, o'qituvchi hamda tengdoshlar bilan munosabatlarning keskinlashishiga olib keladi, bu ham aqliy, ham jismoniy buzilishlarga sabab bo'ladi.

Ikkinchi fasl "*Nutqiy tafakkurning neyropsixolingvistik tavsifi*"ni aks ettiradi. Unda nutqiy jarayonlar o'rganilib, nutq qurilishi muloqot kontekstiga, uslubiga va janriga qarab o'zgarishi ko'rsatib berilgan, ya'ni nutq intensiyasiga qarab turli xil strategiyalarni talab qilishi ta'kidlanadi.

Rus tilshunos olimi K.F.Sedovning yozishicha, "muayyan sharoitlarda fikrlash va lingvistik formulalar mustaqil ravishda mavjud bo'lishi mumkin, bu nutq va fikrlash avtonom (alohida) ishlashga qodir bo'lgan turli xil bilim jarayonlari ekanligini ko'rsatadi. Kundalik hayotda biz "nutqsiz fikrlash" va, aksincha, "o'ylamasdan nutq so'zlash" misollariga duch kelamiz. Fikrlash va nutq yagona bilim jarayoniga birlashganda, biz diskursiv fikrlash bilan shug'ullanamiz. Nutq hamda fikrlash funksiyalari o'rtasida soddalashtirilgan farqni yaratish va ularni miyaning turli yarim sharlari bilan bog'lash orqali biz fikrlash, asosan, o'ng yarim shardan foydalanadi, nutq esa hatto ma'nosiz bo'lsa ham, chap yarim sharning grammatik imkoniyatlariga tayanadi"²⁹, deb ta'kidlashimiz mumkin.

L.S.Vigotskiyning nutqni yaratish muammosi bo'yicha izchil qarashlari "*Мышление и речь*"³⁰ ("Fikrlash va nutq") kitobida keltirilgan. Olim javob berishga harakat qilgan asosiy savol – fikr va so'z o'rtasida nima bor? Tadqiqotchining fikriga ko'ra, bu ongdagi fikrning og'zaki nutqqa o'tib, ma'noli so'zga aylanishidir. Biroq bu metamorfozdan oldin muhim bir bosqich keladi: fikrning o'zi boshqa fikrdan emas, balki insonning turli ehtiyojlaridan, barcha harakatlaridan, da'vatlaridan, his-tuyg'ulari va hokazolarni qamrab oladigan sohadan kelib chiqadi. Motiv inson nutqidagi birinchi instansiyadir. Shuningdek, u oxirgi instansiya – gapni idrok etish va tushunish jarayoniga o'tadi. Chunki suhbatdosh biz nima deyishimizni anglashi kerak.

L.S.Vigotskiy nazariyasiga ko'ra gapni shakllantirish jarayoni to'rt xil bosqichdan o'tadi:

1. Motiv (sabab) – muloqot qilish uchun asosiy motivatsiya yoki niyat.

²⁹ Седов К.Ф. Нейропсихоллингвистика. – М.: Лабиринт, 2007. – С.116.

³⁰ Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Прогресс, 1996. – 362 с.

2. Niyat (fikir) – shaxs yetkazmoqchi bo‘lgan o‘ziga xos fikr yoki g‘oyani shakllantirish.

3. Ichki nutq – fikrni ixcham, o‘rganilgan nutq shakliga tarjima qilish.

4. So‘zni avtomatik amalga oshirish. Nutqni gapirish yoki yozish orqali jismoniy takrorlash³¹.

Fiziologik omillar (miya yarim korteksining faollashishi) va kognitiv jarayonlar (fikr va niyatni shakllantirish) o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir bilan ta‘kidlangan motivatsiyaning ikki tomonlama tabiati miya faoliyati va nutq ishlab chiqarish o‘rtasidagi murakkab munosabatni ta‘kidlaydi. Dastlab L.S.Vigotskiy tomonidan taklif qilingan ushbu konsepsiya rus psixologlari, psixolingvistlari va lingvokulturologlarining ko‘plab asarlariga ta‘sir ko‘rsatdi.

N.I.Jinkin “Механизмы речи”³² (“Nutq mexanizmlari”) asarida an‘anaviy nutq tushunchasini aloqa jarayonlarida tildan foydalanish sifatida keltiradi: “Tilshunoslik, fiziologiya, fizika, mantiq va psixologiya nutqni o‘rganadi, lekin har bir fan unga o‘ziga xos nuqtayi nazardan yondashadi va o‘ziga xos maqsadlarni ko‘zlaydi. Ushbu farqlarga qaramay, o‘rganish obyekti – nutq o‘zgarishsiz qolmoqda...”³³.

So‘nggi ma‘lumotlarga ko‘ra, fikrlar tafakkur qilish jarayonida verbal kodlarga aylanadi. Bu jarayon fikrlarni so‘zlarga o‘tishini o‘z ichiga oladi, bu ham shakl, ham mazmun o‘zgarishiga olib kelishi mumkin.

Verbal fikrlash tushunchasi S.L.Rubinshteyn³⁴ kabi rus psixologlari tomonidan qo‘llangan. Olimlar verbal fikrlar nafaqat yaratilgan, balki shakllangan va o‘zgartirilganligini isbotladilar. Og‘zaki tafakkurning bu tavsifi rus psixolingvistikasida keng tarqalgan.

Nutq va tafakkurning o‘zaro bog‘liqligi muammosi bo‘yicha zamonaviy fanda mavjud bo‘lgan fikrlarni umumlashtirib, fikrni jumlagi aylantirishda olima I.A.Zimnyaya³⁵ uchta asosiy bosqichni (motivatsion, shakllantiruvchi va amalga oshiruvchi) aytib o‘tadi. Uning ta‘kidlashicha, nutqni rivojlantirishning dastlabki bosqichi motivatsion kommunikativ niyatni birlashtirishni o‘z ichiga oladi: “Motiv ushbu nutq harakati uchun rag‘batlantiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi, faol niyat esa ma‘ruzachining muloqotdagi maqsadini hamda suhbatdoshga u tomonidan rejalashtirilgan ta‘sir shaklini ifodalaydi. Bu bosqichda ma‘ruzachi nima haqida gaplashmoqchi ekanligini biladi, lekin aniq nima deyishini bilmaydi. Ular mavzu yoki ularning bayonoti haqida umumiy tushunchaga ega va ma‘lumotni olish, so‘rash yoki uni taqdim etishni o‘z ichiga olishidan qat‘i nazar, o‘zlarining kommunikativ niyatlari asosida tinglovchi bilan qanday munosabatda bo‘lishni bilishadi”³⁶.

Nutq tafakkurini til yordamida fikrlarni shakllantirish jarayoni deb ta‘riflash mumkin. Bu jarayonga ko‘plab elementlar kiradi:

³¹ Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Прогресс, 1996. – С.221.

³² Жинкин Н.И. Механизмы речи. – М.: Академия наук, 1958. – С.368.

³³ Жинкин Н.И. Механизмы речи. – М.: Академия наук, 1958. – С.13.

³⁴ Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии: В 2 т. Т. I. – М.: Педагогика, 1989. – С.488.

³⁵ Зимняя И.А. Лингвопсихология речевой деятельности. – М.: Воронеж: МОДЭК, 2001. – С.432.

³⁶ Зимняя И.А. Лингвопсихология речевой деятельности. – М.: Воронеж: МОДЭК, 2001. – С.90.

1. Semantik jihat ma'nolarni tushunish va yaratishni anglatadi, konseptual bilimlarga kirish va semantik reprezentativliklarni rivojlantiradi.

2. Grammatik elementlar tilning tuzilishini, tarkibiy qismlarning tashkil etilishini va til qoidalarining qo'llanishini nazorat qiladi.

3. Fonologik jihat semantik tarkibni talaffuz qilish yoki ichki aks ettirish uchun fonologik shakllarga o'tishni o'z ichiga oladi.

4. Pragmatik jihat kontekstni tushunish, aloqa maqsadlari va holatiga qarab nutqni tuzatish bilan bog'liq bo'ladi.

Neyropsixolingvistika sohasidagi tadqiqotlar nutq tafakkurining ushbu tarkibiy qismlari miyaning turli mintaqalari va funksional tizimlarining ishlashiga bog'liq. Demak, nutq tafakkurining neyropsixolingvistik tavsifi ko'p qirrali bo'lib, til, bilish va miya faoliyati bilan bog'liq keng ko'lamlı masalalarni qamrab oladi. Ushbu soha zamonaviy neyrovizualizatsiya usullari va fanlararo yondashuv tufayli faol rivojlanmoqda.

Uchinchi fasl "Nutq buzilishlarining miya faoliyati bilan bog'liqligi" deb nomlanadi. Unda patologik o'zgarishlarning xususiyatlarini aks ettiruvchi leksik birliklarni tahlil qilishga alohida e'tibor beriladi. Ushbu kuzatuvlar nutqida nuqsoni bo'lgan shaxslarni tashxislash, davolash va reabilitatsiya qilish uchun juda muhimdir.

Nutq buzilishlarining zamonaviy tasniflari ikki jihatga asoslanadi. Bular quyidagilar:

1) etiopatogenez (klinik va pedagogik tasnif). Asosiy e'tibor nutq buzilishlarining sabab va mexanizmlariga qaratilgan;

2) nutq faoliyatini psixofizik tashkil etish (psixologik va pedagogik tasnif). Nutq buzilishlarini nutq ishlab chiqarishning psixologik va jismoniy jihatlaridagi buzilishlar nuqtayi nazaridan o'rganadi.

Nutqni rivojlantirishning buzilishi bir qator biologik va ijtimoiy omillar tufayli yuzaga kelishi mumkin. Biologik omillar rivojlanishning turli bosqichlariga ta'sir qiladi.

Zamonaviy tibbiyot va nutq terapiyasida nutq nuqsonlarini bartaraf etishning asosiy prinsipi keng qamrovli aralashuvdir. Bu quyidagi kombinatsiyalarni o'z ichiga oladi: miya rivojlanishini rag'batlantirish uchun dori terapiyasi (1); psixologik va pedagogik yondashuvlar (2); nutq terapiyasi korreksiyasi (tuzatish) (3).

S.S.Lyapidevskiy³⁷ tasnifiga ko'ra, nutq buzilishlariga quyidagilar kiradi:

1. Fonetik nuqsonlar (dislaliya, dizartriya, rinolaliya).

2. Nutqning rivojlanmaganligi yoki yo'qolishi (alaliya, afaziya).

3. Temp, ritm va nutqning ketma-ketligini buzish (beixtiyor), taxilaliya (haddan tashqari tez nutq) va bradilaliya (haddan tashqari sekin nutq).

Bolalardagi nutq nuqsonlariga stress yoki qattiq qo'rquv, shikastlanish, nevrologik kasallik, miya falaji yoki markaziy asab tizimining noto'g'ri ishlashi,

³⁷ Ляпидевский С.С. Патология речи. – М.: Медицина, 1971. – С.108.

yuqumli kasallik, nutq apparatining shikastlanishi yoki noto'g'ri shakllanishi, karlik, irsiyat kabilar sabab bo'lishi mumkin³⁸.

Tarkibiy jihatdan nutqni birliklarga bo'lish mumkin. Jumladan, fonema (mazmunli nutq tovushlari), leksema (alohida obyekt yoki hodisalarni ifodalovchi so'z va iboralar), semantik birliklar (tushunchani belgilaydigan so'zlar), jumlar (fikrlarni ifodalovchi iboralar) va gap (to'liq xabarlar). Tashkiliy nuqtayi nazardan nutq birliklari ikki tamoyilga asoslanadi. Bular sintagmatik (so'zlarning ketma-ketligi) va paradigmatik (so'z va ularning ma'nolarini tasniflovchi iyerarxik til kodlari)³⁹.

1. Miyaning shikastlanishidan kelib chiqadigan nutq buzilishlari (akineziya). Bu nutq impulslari va faolligining pasayishi natijasida ko'pincha prefrontal mediobazal korteks (miyaning shikastlanishi) tufayli yuzaga keladi. Bu o'z-o'zidan paydo bo'ladigan impulslarni me'yorlashtiradi va umumiy faollikning pasayishiga olib keladi. Akineziya akinetik mutizm sindromining bir qismidir, bu ko'pincha anevrizma yorilishidan keyin sodir bo'ladi.

2. Dizartriya – bu nutq apparati innervatsiyasining buzilishi tufayli talaffuzga ta'sir qiladigan nutq buzilishi⁴⁰. Bu mushak-skelet tizimining muammolari (paralich/falaj, tonus yoki muvofiqlashtirishning buzilishi) bo'lib, artikulyatsiya bilan bog'liq qiyinchiliklar ham nutqiy (verbal), ham nutqqa aloqador bo'lmagan (noverbal) harakatlarning buzilishiga olib keladi. Jumladan, til va lab harakatlari, shuningdek, yumshoq tanglay harakatchanligi izdan chiqadi.

3. Afaziya – katta yoshlardagi chap yarim shar korteksining ikkilamchi va assotsiativ hududlarining shikastlanishi natijasida verbal va noverbal muloqotning orttirilgan buzilishi⁴¹. Y.D.Xomskayaning⁴² fikricha, “afaziya – bu miya yarim korteksining va chap yarim sharning qo'shni subkorteksining lokalizatsiya qilingan shikastlanishi tufayli ilgari shakllangan nutqning buzilishi. Bu nutq faoliyatining turli shakllariga ta'sir qiluvchi tizimli buzilishdir.

Neyropsixolingvistika sohasiga chuqurroq kirib, biz miya funksiyalari, nutqni qayta ishlash va nutqning buzilishi o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib, ilmiy tadqiqot hamda terapevtik salohiyatning boy palitrasini ko'rsatamiz.

Miya tuzilishi va funksiyalari haqidagi tushunchamiz rivojlanib borar ekan, biz kognitiv jarayonlar, asab sxemalari va nutqning buzilishi o'rtasidagi murakkab munosabatlarni tobora ko'proq angladik.

Neyrovizualizatsiya tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, bu nutq buzilishlari va ular bilan bog'liq motor zanjirlarining disfunktsiyasi bilan bog'liq bo'lib, kuzatilgan nutq yetishmovchiligi uchun nevrologik asos bo'lib xizmat qiladi va maqsadli nutq terapiyasi yondashuvlarini ishlab chiqish uchun qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, neyropsixolingvistika til o'rganish jarayonlarini chuqurroq tushunish va ularni takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi. Miya va til o'rtasidagi funksional bog'liqlikni tahlil qilish orqali nafaqat tilni o'zlashtirish

³⁸ Мухиддинов А.Г. Основы нейролингвистики. – Фергана: Classic, 2022. – С.170.

³⁹ Лурия А.Р. Письмо и речь. Нейролингвистические исследования. – М.: Академия, 2002. – С.352.

⁴⁰ Волкова Л.С. Логопедия. – М.: Владос, 2009. – С.703.

⁴¹ Кулеш С.Д. Нейропсихология. – Гродно: Гродненский университет, 2011. – 180 с.

⁴² Хомская Е.Д. Нейропсихология. – СПб.: Питер, 2005. – 496 с.

mexanizmlarini aniqroq anglash, balki o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi metodik strategiyalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyati ham yuzaga keladi.

Tadqiqotimizning uchinchi bobi "**Neyropsixolingvistik metodlar tavsifi**" deb nomlanib, uning birinchi fasli "*Neyropsixolingvistik metodlarning nazariy asoslari*"ni ochib bergan. Unda mazkur metodlarning nazariy asoslari, amaliy qo'llanishi, qo'llanish tartibi va o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Inson nutqini ishlab chiqarish va anglash jarayonida miyaning bir nechta funksional zonalari ishtirok etadi. Ulardan ayrimlari asosiy (masalan, Broka va Vernike zonalari), boshqalari esa yordamchi (masalan, motor, vizual, assotsiativ korteks) funksiyalarni bajaradi.

Shuning uchun neyrolingvistik tadqiqotlar ko'p hollarda boshqa fanlarning metodlariga tayanadi, jumladan:

– Kuzatish (observatsiya) metodi – bemorlarda nutq buzilishlari, artikulyatsion apparat motorikasi, xotira, diqqat va tasavvur kabi psixolingvistik holatlarni baholash uchun qo'llanadi.

– Amital-natriy testi (Wada testi) – invaziv rentgenologik usul bo'lib, miya yarimsharlarining til faoliyatidagi dominatsiyasini aniqlashda qo'llanadi.

– Funksional magnit-rezonans tomografiyasi (fMRI) – miya qon aylanishi va neyron faolligini turli vazifalarni bajarish jarayonida vizual tarzda aniqlash imkonini beradi.

– Elektrostimulyatsiya va elektroshok terapiyasi – miyaning muayyan zonalarini rag'batlantirib, qaysi hudud qanday nutqiy reaksiyalarni boshqarishini aniqlash imkonini beradi.

– Eye-tracking (ko'z harakatlarini kuzatish) – o'qish, vizual qabul va diqqatni jamlash kabi jarayonlarda ko'z harakatlarining dinamikasini o'rganish uchun qo'llanadi.

Ushbu metodlar neyropsixolingvistik tadqiqotlarda miya va til o'rtasidagi murakkab munosabatlarni aniq va eksperimental asosda o'rganishga xizmat qiladi. Bu esa nafaqat fundamental lingvistik bilimlarni boyitadi, balki amaliy logopediya, afaziologiya, rehabilitatsiya sohalariga ham tayanadigan asos yaratadi.

Bizning fikrimizcha, turli xil miya tadqiqotlari metodlarining qo'llanishi neyrolingvistik fanlararo xususiyatga ega ekanligini ko'rsatibgina qolmay, balki bu sohaga mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida qarash zarurligini ham tasdiqlaydi. Haqiqatdan ham, neyropsixolingvistika, psixologiya, nevrologiya va kognitiv fanlar chorrahasida shakllanib, hozirgi kunda miyaning til bilan bog'liq funksional faoliyatini chuqur o'rganishga qaratilgan alohida tadqiqot sohasi hisoblanadi.

Neyropsixologik tadqiqotlar esa ikki asosiy yo'nalishda olib boriladi: birinchidan, ular nutqni idrok etishdagi buzilishlar (masalan, afaziya, apraksiya, agnoziya)ni o'rganadi; ikkinchidan, sog'lom shaxslarda tilning neyron darajadagi qayta ishlanish mexanizmlarini kuzatishga qaratilgan. Tadqiqotimiz doirasida neyropsixolingvistik izlanishlar quyidagi yo'nalishlarni qamrab olayotganini aniqladik:

– nutq patologiyalari – fonetik, fonologik, semantik va sintaktik darajadagi buzilishlar;

– afaziya va boshqa nutq funksiyalari buzilishlari – Broka, Vernike, konduktiv, amnestik va aralash afaziya shakllari;

– miya yarimsharlarida nutq kodlanishi – o‘ng qo‘llilar va chap qo‘llilar o‘rtasida til dominantlari farqlari;

– til tizimining ona tilida so‘zlashuvchi shaxslar tomonidan egallanishi – tilni birinchi til sifatida o‘zlashtirish mexanizmlari;

– yozuv yo‘nalishi (chapdan o‘ngga/o‘ngdan chapga) – o‘qish va idrok jarayonlariga ta’siri;

– bolalarda tilni dekodlash – til signalini semantik va sintaktik darajada tahlil qilish mexanizmlari;

– yoshi katta insonlarda miya faoliyatidagi til jarayonlari – kognitiv yondashuvda qarilik bilan bog‘liq til o‘zgarishlari;

– bilingvizm – ikki yoki undan ortiq tilni egallagan shaxslarning miyada til tizimlarini boshqarish xususiyatlari;

– tilni o‘zlashtirish va axborotni qayta ishlash – til inputini semantik, sintaktik va fonologik jihatdan kodlash hamda saqlash jarayonlari.

Ushbu yo‘nalishlar asosida olib borilayotgan neyropsixolingvistik tadqiqotlar grammatika, fonetika, nutq uslublari va matn tuzilmasining murakkablik darajalarini chuqurroq o‘rganish imkonini beradi. Bu esa neyropsixolingvistika fanining amaliy va nazariy jihatdan boyishiga xizmat qilmoqda.

Mazkur jihatlarni hisobga olgan holda, neyropsixolingvistika amaliyotga yo‘naltirilgan va eksperimental asosga tayanuvchi fan hisoblanadi. Bu borada rus neyropsixolingvisti K.F.Sedovning fikri alohida e‘tiborga loyiqdir. U neyropsixolingvistik tadqiqot usullarini “klinik amaliyotdan hamda nutq buzilishlarini empirik o‘rganishdan ajralmas” deb ta’riflaydi va tajribaga asoslangan tahlil hamda nazariyalarni ushbu fan sohasi uchun markaziy ahamiyatga ega⁴³, deb hisoblaydi.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli “*Neyropsixolingvistik metodlarning amaliy qo‘llanishi*” deb nomlanadi.

Neyropsixolingvistika o‘ziga xos metodologik yondashuvlarga ega bo‘lgan fan sohasidir. Ta’kidlash lozimki, neyropsixolingvistik tadqiqot metodlari doimiy ravishda tilshunoslik nazariyasi va zamonaviy nevrologiya yutuqlari bilan uzviy bog‘liq holda takomillashib va yangilanib bormoqda. Bu esa ushbu fanning o‘zgaruvchan tabiatini hamda fanlararo yondashuvga asoslangan rivojlanishini yaqqol aks ettiradi⁴⁴.

Lingvistik mezonlarni klinik amaliyotga tatbiq etishda yuqori darajada ehtiyotkorlik talab etiladi, chunki tashqi ko‘rinishda bir xil bo‘lib ko‘rinadigan nutq buzilishlari aslida miya faoliyatidagi turlicha psixolingvistik⁴⁵ operatsiyalarning buzilishi natijasida yuzaga kelgan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham faqatgina sistemali tahlil, xususan, A.R.Luriya tomonidan klinik

⁴³ Седов К.Ф. Нейропсихоллингвистика. – М.: Лабиринт, 2007. – С.12

⁴⁴ <https://tapemark.narod.ru/les/298a.html> (murojaat sanasi: 28.09.2024).

⁴⁵ <https://tapemark.narod.ru/les/404d.html> (murojaat sanasi: 28.09.2024).

amaliyotga joriy etilgan kompleks analiz usuli (masalan, nomlash, o‘qish, yozish kabi nutq funksiyalarining buzilishlarini aniqlash) orqali nutq buzilishlarining haqiqiy tabiatini aniqlash mumkin bo‘ladi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, ilm-fan rivoji va texnik vositalarning takomillashuvi bilan neyrolingvistik tadqiqotlarda yangi zamonaviy metodlar paydo bo‘ldi. Jumladan:

– Angiografiya va amital-natriy testi – bu usullar orqali rentgen kontrast moddalari yordamida miya faoliyati tahlil qilinadi;

– Dixotomik eshitish metodi – bunda lingvistik stimullar o‘ng va chap quloqqa alohida beriladi, bu esa miya yarimsharlarining tilga oid dominatsiyasini aniqlashga xizmat qiladi;

– Unilateral elektroshok (elektrostimulyatsiya) – miya sohalariga elektr impulslar yuborish orqali nutq funksiyalarining neyron lokalizatsiyasi aniqlanadi.

Bundan tashqari, neyropsixolingvistik tadqiqotlar pedagogik kuzatuvlar bilan ham boyitilmoqda. Bu esa, ayniqsa, til buzilishlaridan aziyat chekayotgan bemorlar bilan olib borilayotgan rehabilitatsiya va qayta o‘rgatish jarayonlarida muhim metodik vosita sifatida qo‘llanmoqda.

Tahlil uchun testlar o‘tkazish usuli ham keng tarqalgan bo‘lib, masalan, “WADA” testi miya yarimsharlaridan birini vaqtincha inaktivatsiya qilish orqali nutq faoliyatida qaysi yarimshar ustunlik qilayotganini aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu test nutq va xotira funksiyalari uchun mas’ul bo‘lgan yarimsharni aniqlash imkonini beradi⁴⁶.

Neyrovizualizatsiya usullari aynan shu fiziologik o‘zgarishlarni o‘lchash va tasvirlash imkonini beruvchi texnologiyalar bo‘lib, ular orqali miya funksiyalarining real vaqtdagi ishlash mexanizmlarini aniqlash mumkin. Bunday usullarga quyidagilar kiradi:

– Magnit-rezonans tomografiya (fMRT) – miya tuzilmasining aniq tasvirini beradi;

– Elektroensefalografiya (EEG) – miya faoliyatining elektr signallarini qayd qiladi;

– Pozitron emissiyali tomografiya (PET) – metabolik va qon aylanish o‘zgarishlarini aniqlaydi.

Mazkur usullar yordamida nutq jarayonlarining buzilishi yoki tiklanishi paytida miya qanday javob qaytarishi aniq o‘rganiladi.

Uchinchi fasl “*Neyropsixolingvistik testlarni o‘tkazish tartibi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari*”ni o‘zida aks ettirgan. Neyropsixolingvistika testlari bu miya faoliyati va til jarayonlari o‘rtasidagi murakkab aloqalarni aniqlash, baholash va klinik hamda ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilishga qaratilgan maxsus vositalar tizimidir. Ushbu testlar nutq buzilishlarini erta aniqlash, afaziyani tashxislash, bolalarda nutq rivojlanishini baholash, neyrojarrohlik amaliyotlarini rejalashtirish va kognitiv til faoliyatining nevrologik asoslarini aniqlashda keng qo‘llanadi.

⁴⁶ Wada J., Rasmussen T. Intracarotid injection of sodium amytal for the lateralization of cerebral speech dominance// Journal of neurosurgery, 2007. – № 106 (6). – P.117-133.

“BAT”⁴⁷ (Boston afaziya testlari) 1972-yilda E.Kaplan, H.Gudglass va S.Veintraub tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, afaziyani aniqlash va tashxislash uchun asosiy diagnostik vositalardan biridir. Test orqali nutq, eshitish, tushunish, yozish va o‘qish kabi til funksiyalari baholanadi. “BAT” neyropsixolingvistika doirasida tilni qayta ishlash jarayonlari va ulardagi buzilishlarni aniqlash uchun muhim eksperimental metod hisoblanadi.

“WAB”⁴⁸ (Western aphasia battery) afaziyani tashxislash va til funksiyalarini (nutq, tushunish, o‘qish, yozish) keng qamrovli baholashga mo‘ljallangan testdir. Ushbu test afaziyaning shaklini aniqlash, shuningdek, davolash va reabilitatsiya rejalarini belgilash uchun keng qo‘llanadi.

Kognitiv nutq testlari nutq va kognitiv jarayonlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga qaratilgan. Ular orqali nutqni ishlab chiqarish va tushunish bilan bog‘liq miya tuzilmalarining funksional faolligi aniqlanadi. Bu testlar klinik neyropsixologik diagnostikada ham, ilmiy tadqiqotlarda ham qo‘llanadi.

“MSCh”⁴⁹ (Метод самостоятельного чтения) – bu kompyuter asosida o‘tkaziladigan onlayn eksperimental usul bo‘lib, unda ishtirokchilar matn segmentlarini o‘z tezligida o‘qiydi. Har bir segmentdan so‘ng tugma bosiladi va reaksiya vaqti qayd etiladi. Bu usul sezilmas, avtomatik kognitiv jarayonlarni aniqlash, birinchi (Ya1) va ikkinchi til (Ya2) o‘rganuvchilarning so‘z tanlash, tushunish va sintaktik tahlil tezligini taqqoslashda foydalidir.

Okulografiya (eye-tracking)⁵⁰. Ko‘z harakatlarini kuzatish (okulografiya) usuli insonning til va o‘qish jarayonlaridagi qarash yo‘nalishi, fiksatsiya va sakkadik (ko‘zning bir nuqtadan boshqasiga juda tez harakati) harakatlarini tahlil qilish imkonini beradi. Bu metod ayniqsa disleksiya, o‘qishdagi qiyinchiliklar, bilingvizm va kognitiv yuklama bilan bog‘liq jarayonlarni aniqlashda qo‘llanadi. Zamonaviy tadqiqotlar bu metod yordamida nutqiy o‘zaro ta’sirni, gapiruvchi va tinglovchi o‘rtasidagi real vaqtli dinamikani tahlil qilish imkonini beradi.

Testlarning amaliy ahamiyati shundan iboratki, ular:

- afaziya va boshqa til buzilishlarini aniqlash;
- til bilan bog‘liq miya hududlari asosida xarita tuzish;
- reabilitatsiya strategiyalarini shakllantirish;
- bolalar nutqining rivojlanish darajasini baholash;
- til va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur o‘rganish uchun xizmat qiladi.

Ushbu testlar logoped, lingvist, neyropsixolog, defektolog va nevrologlar uchun muhim diagnostik vositalar bo‘lib, klinika va ilmiy tadqiqotlarda keng qo‘llanadi.

⁴⁷ Kaplan E., Goodglass H., Weintraub S. Boston Naming Test (BNT). APA PsycTests. <https://doi.org/10.1037/t27208-000> (murojaat sanasi: 28.09.2024).

⁴⁸ Risser A.H., Spreen, O. The western aphasia battery. Journal of Clinical and Experimental Neuropsychology, 1985. – №7(4). – P.463-470.

⁴⁹ Жақсылыққызы К., Нәбиева Г.С. Современные методы сихолингвистики и нейролингвистики в усвоении второго языка // Eurasian Journal of Philology Science and Education, 2021. – № 183 (3). – С.16.

⁵⁰ Грачева М.А., Шалилех С. Диагностика дислексии с использованием методов искусственного интеллекта по данным движений глаз: обзор. Клиническая и специальная психология, 2023. – Том 12. № 3. – С.1–29.

Bundan tashqari yana nutq va kognitiv rivojlanishni erta bosqichlarda aniqlash uchun bir qator skrining testlari mavjud. Masalan:

- “*ESP*”⁵¹ (The Early Screening Inventory) – bolalarning umumiy rivojlanishini (jismoniy, ijtimoiy, til, kognitiv) dastlabki bosqichda baholash uchun ishlab chiqilgan;

- “*MSCA*”⁵² (McCarthy Scales of Children’s Abilities) – 2,5–8,5 yosh oralig‘idagi bolalarning kognitiv, motorik va lingvistik rivojlanishini baholashga mo‘ljallangan.

- “*LEAP-Q*”⁵³ (Language Experience and Proficiency Questionnaire) bu ikki tilli va ko‘p tilli shaxslarning til tajribasi hamda tillarni bilish darajasini baholash uchun ishlab chiqilgan so‘rovnoma testi bo‘lib, hozirda neyropsixolingvistika, neyropsixologiya, tilshunoslik, ta‘lim va kommunikatsiya sohalarida keng qo‘llanmoqda.

- “*Raven*”⁵⁴ (Raven's Progressive Matrices) bu aql-idrok va kognitiv qobiliyatlarni baholash uchun eng mashhur va keng qo‘llanadigan testlardan biridir. Ushbu test umumiy intellektni baholashga mo‘ljallangan va abstrakt fikrlash hamda naqshlarni tushunish qobiliyatini o‘lchaydi.

- “*RAVLT*”⁵⁵ (The Rey Auditory Verbal Learning Test). Test sinovi 1958-yilda shveysariyalik neyropsixolog, ko‘rish va og‘zaki xotirani baholash bo‘yicha ishlari bilan tanilgan olim Andre Remon Rey tomonidan ishlab chiqilgan. “*RAVLT*” eshitish orqali og‘zaki o‘rganish testi ishtirokchilarning og‘zaki ma‘lumotlarni kodlash, birlashtirish, saqlash va ajratib olish qobiliyatini baholash uchun ishlatiladi.

- *LexTALE*⁵⁶ testi (Lexical Test for Advanced Learners of English) bu lug‘at boyligini baholashga mo‘ljallangan innovatsion vosita hisoblanadi. Leksik kompetensiyani aniqlovchi diagnostik usul sifatida ishlab chiqilgan. *LexTALE* neyropsixolingvistika, ikki tillilik va til o‘rganish metodikalarini baholash sohasidagi ko‘plab tadqiqotlarda qo‘llanmoqda.

- *CTT* (Color Trail Making Test) bu neyropsixologik test bo‘lib, uning maqsadi insonning kognitiv funksiyalarini, shu jumladan, diqqat, tezkorlik, ko‘nikmalar va ishlash qobiliyatini baholashdir. Yo‘nalish bo‘yicha yurishning rangli testi orqali ko‘rish diqqati va berilgan topshiriqlarda diqqatni ko‘chirish qobiliyatni baholashga imkon beradi. Testni asosan kognitiv ko‘nikmalarni baholash uchun ishlatishadi.

⁵¹ Meisels S.J., Wiske M.S., Tivnan T. Predicting school performance with the Early Screening Inventory // *Psychology in the Schools*, 1984. T.21. – №1. – P.25-33.

⁵² Sands R., D’Amato, R.C. McCarthy Scales of Children’s Abilities. *Encyclopedia of Clinical Neuropsychology*, 2017. – P.12.

⁵³ Kaushanskaya M, Blumenfeld H.K. Viorica Marian The Language Experience and Proficiency Questionnaire (LEAP-Q): Ten years later// *Bilingualism: Language and Cognition*, 2020. – Volume 23, Issue 5. – P.945-950.

⁵⁴ John Raven J. Raven Progressive Matrices// *Handbook of Nonverbal Assessment*, 2003. – P.223-237.

⁵⁵ Warner-Chacon K., Razani J., Salazar X., Lu P., Boone K. B. The Rey 15-Item Recognition Trial: A Technique to Enhance Sensitivity of the Rey 15-Item Memorization Test // *Journal of Clinical and Experimental Neuropsychology (Neuropsychology, Development and Cognition: Section A)*, 2002. – № 24 (5). – P.61-73..

⁵⁶ <https://www.lextale.com/>; <https://www.hse.ru/neuroling/lextale> (murojaat sanasi: 29.09.2024).

Ushbu testlar sinovchi va baholovchi uchun ham, bola uchun ham past yuklamali, lekin yuqori informativ baholash imkoniyatini beradi.

To'rtinchi bob **“O‘zbek tilida neyropsixolingvistik tashxislash testlarni ishlab chiqish va qo‘llash”** deb nomlangan. Uning birinchi fasli *“DonoQiz-Uz”* milliy neyropsixolingvistik tashxislash testining lingvistik va metodologik asoslari, ishlab chiqish jarayoni va sinov natijalari tahlili”ni ochib berishga bag‘ishlanadi.

Bizningcha, neyropsixolingvistik tashxislash testlarini ishlab chiqishda nafaqat lingvistik, balki neyropsixologik mexanizmlar ham inobatga olinishi zarur. Bu esa testlar orqali boladagi nutqni idrok etish, qayta ishlash, semantik tahlil qilish va ekspressiv shaklda ifoda etish jarayonlarini baholash imkonini beradi. Bundan tashqari, I.N.Jinkina va L.V.Karasik o‘z tadqiqotlarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining leksik, fonetik va sintaktik ko‘nikmalarini baholashda maxsus lingvistik testlar muhim ahamiyatga egaligi va ular orqali nafaqat til bilimi, balki kognitiv jarayonlar holatini ham aniqladilar⁵⁷.

Fikrimizcha, tashxislash testlarni ishlab chiqishda quyidagi neyropsixolingvistik mezonlar inobatga olinishi maqsadga muvofiq:

1. Fonemik eshitish qobiliyatini baholash: bolaning tovushlarni farqlay olishi hamda fonema-grafema mosligini to‘g‘ri aniqlashi.

2. Leksik-semantik tizim faoliyatini baholash: so‘z boyligi, ma‘no to‘g‘risidagi bilimlar va so‘z tanlash jarayonining samaradorligi.

3. Grammatik strukturalarni qayta ishlash qobiliyati: jumla tuzish, gap bo‘laklarining bog‘lanishini anglash, sintaktik konstruksiyalarni ifoda etish qobiliyati.

4. Og‘zaki va yozma nutqdagi multimodal qayta ishlash: eshitib tushunish, ko‘rib qabul qilish va aytish jarayonlari o‘rtasidagi integratsiya.

O‘zbek tilida tashxislash testlarini ishlab chiqishda neyropsixolingvistik yondashuvni hisobga olish, til faoliyati va kognitiv jarayonlar o‘rtasidagi murakkab bog‘lanishlarni aniqlash, testlarni samarali va maqsadga yo‘naltirilgan holda ishlab chiqish uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi. Bu jarayonni kompleks tahlil qilish esa, testlarning amaliy qiymatini va ta’limdagi ta’sirchanligini yanada oshiradi.

Zamonaviy ta’limda nutqni rivojlantirish va o‘quvchilardagi savodxonlik qobiliyatlarini erta aniqlash bo‘yicha maxsus tashxislash vositalariga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Ilk bor tadqiqotlarimiz natijasida bolalarning o‘qish va nutqni rivojlantirish jarayonlarini baholashga yo‘naltirilgan *“DonoQiz-Uz”* milliy neyropsixolingvistik tashxislash testi ishlab chiqildi. Test tuzilmasi va metodologik platformasi o‘zbek tilining lingvistik xususiyatlari, bolalarning rivojlanish psixologiyasi va neyropsixolingvistika tamoyillarini uyg‘unlashtirishga asoslangan.

“DonoQiz-Uz” milliy neyropsixolingvistik tashxislash testi – bu kichik yoshdagi o‘quvchilarda o‘qish va nutqni rivojlantirish bilan bog‘liq ko‘nikmalarni aniqlashga qaratilgan tashxislash testlar majmuasidir. Test 8-11 yoshli bolalarda

⁵⁷ Жинкин. Н.И. Язык. Речь. – М.: Творчество. – 158 с.; Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс / Волгоград. Гос. Пед. Ун-т; Н. -И. Лаб. Аксиол. лингвистика. – Волгоград: Перемена, 2002. – С.47.

o‘qish bilan bog‘liq qiyinchiliklar, shu jumladan, disleksiya, nutqdagi strukturaviy buzilishlar va til rivojlanishidagi ortda qolish holatlarini erta tashxislash imkonini beradi. “*DonoQiz-Uz*” milliy neyropsixolingvistik tashxislash testi ishlab chiqilishida S.Dehaene va L.Cohen⁵⁸ tomonidan taklif qilingan “visual word form area”(so‘zning vizual shaklini qayta ishlash sohasi) konsepsiyasi ham asosiy metodologik poydevor sifatida xizmat qildi. Unga ko‘ra, o‘qishning avtomatlashtirilishi uchun “occipito-temporal korteks”ning maxsus sohalari faollashadi, bu esa bolalarning o‘qish tezligi va matnni tushunish ko‘rsatkichlariga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Aynan shu nazariy asos test modullari orqali o‘qish avtomatizmi va semantik ishlov berish darajasini baholash imkonini berdi. Lingvistik materiallarni tanlash jarayonida matnlarning psixolingvistik va semantik murakkablik darajalari “O‘zbek tili elektron korpusi”dan⁵⁹ olingan lingvistik ko‘rsatkichlar asosida baholandi. Matnlar tarkibida so‘z boyligi, morfologik struktura va sintaktik qurilish darajasi bolalar psixolingvistik rivojlanish bosqichiga mos ravishda tanlandi.

“*DonoQiz-Uz*” milliy neyropsixolingvistik tashxislash testining lingvistik asoslari bolalardagi nutqni retseptiv va ekspressiv (qabul qilish va ifoda etish) darajalarda baholashga tayangan. Test strukturasi quyidagi til darajalari qamrab olingan:

1. Fonetik-fonematik idrok – bola tovushlarni farqlay olishi, to‘g‘ri talaffuz qilish va tinglab tushunish qobiliyati bilan bog‘liq testlar orqali baholanadi.

2. Leksik-semantik tizim – so‘zboshini, so‘zlarni to‘g‘ri tanlash, ular orasida ma‘no munosabatlarini aniqlash bilan bog‘liq bo‘lgan test vazifalari.

3. Grammatik kompetensiyasi – jumla tuzilishi, gap bo‘laklarining bog‘lanishi, morfologik o‘zgarishlarni tushunish qobiliyatini baholovchi topshiriqlar.

4. Sintaktik tuzilish – bolaning qisqa va uzun jumla tuzishi, bog‘lovchi vositalardan foydalanishi va ifodali nutq qurish qobiliyati tekshiriladi.

Bizningcha, ushbu lingvistik tahlillar bolaning umumiy til rivojlanishini to‘liq qamrab oladi va tilning funksional tarkibiy qismlari o‘rtasidagi muvozanatni aniqlash imkonini beradi.

“*DonoQiz-Uz*” milliy neyropsixolingvistik tashxislash testining metodologik asoslari neyropsixolingvistik va pedagogik tashxislashning zamonaviy nazariyalariga asoslanadi. Xususan, A.R.Luriya⁶⁰ ning neyropsixologiya sohasidagi fundamental tadqiqotlari va Y.D.Xomskaya⁶¹ tomonidan ishlab chiqilgan bolalarda kognitiv rivojlanishni aniqlash metodlari asos qilib olingan.

Metodologik jihatdan “*DonoQiz-Uz*” milliy neyropsixolingvistik tashxislash testida skrining va diagnostika vazifalari birgalikda bajariladi.

To‘rtinchi bobning ikkinchi fasli “*Bir tilli va bilingval bolalarning til tajribasi, o‘qishdagi qiyinchiliklarni aniqlash hamda lug‘at boyligini baholash*”

⁵⁸ Dehaene S., Cohen L. The unique role of the visual word form area in reading // Trends in Cognitive Sciences, 2011. – № 15 (6). – P.254-262.

⁵⁹ <https://uzbekcorpus.uz>. (murojaat sanasi: 09.09.2024)

⁶⁰ Лурия А.Р. Основы нейropsychологии. – М.: МГУ, 1973. – С.37.

⁶¹ Хомская Е.Д. Нейropsychология: Учеб. пособие. – М.: Аспект Пресс, 2002. – С.24.

deb nomlangan. Milliy neyropsixolingvistik tashxislash testlari asosida tajribani o'tkazishda quyidagi asosiy tamoyillarni ishlab chiqdik:

1. Umumta'lim maktablarida tajriba-sinov o'tkazish uchun hududiy ta'lim boshqarmasiga ruxsat so'rab, rasmiy xat bilan murojaat qilinadi;

2. Mazkur ruxsatnoma asosida tanlab olingan umumta'lim maktablari rahbariyatiga murojaat qilinib, tajriba-sinovlarga jalb qilinuvchi o'quvchi-ishtirokchilar tanlab olinadi;

3. Har bir ishtirokchi-o'quvchi uchun maxsus ID raqami beriladi;

4. Tajribaning navbatdagi bosqichida ishtirokchilarning ota-onalaridan mazkur tadqiqot uchun maxsus tayyorlangan rozilik xati olinadi;

5. Tajriba ishtirokchilari haqidagi barcha ma'lumotlar sir saqlanadi va tajriba-sinov natijalari faqatgina ilmiy tadqiqotlarda ochiqlanmagan holda foydalaniladi.

6. Rozilik xati bergan ota-onalar "*LEAP-Q Uz*" elektron test-so'rovnomasini to'ldiradilar (ushbu elektron-so'rovnoma to'liq to'ldirilib, natijalar saqlanishi ishtirokchining keyingi bosqichga o'tish yoki o'tmasligini hal qiladi). (1- ilovaga qarang);

7. "*Raven*" tashxislash elektron testi ishtirokchining yoshiga mos tarzda kognitiv qobiliyatlar va intellektual rivojlanganligini aniqlab beradi. (2- ilovaga qarang);

8. Tajribaning keyingi bosqichida bilingval ta'lim muhitidagi ishtirokchilar "*KARASIK*" va milliy neyropsixolingvistik tashxislash metodi "*DonoQiz-Uz*" testidan o'tkaziladi. (3- ilovaga qarang);

9. Milliy neyropsixolingvistik tashxislash metodlari doirasida "*RAVLT-Uz*" testi ham yaratildi. Mazkur testda o'quvchilarning bir necha marotaba o'qib berilgan so'zlarni xotirada saqlab qolish darajasi tekshiriladi. (4- ilovaga qarang);

10. "*LexUz*" milliy neyropsixolingvistik tashxislash metodining ham o'zbek tili xususiyatlari aks etgan namunasi ishlab chiqilgan. Ushbu testda ishtirokchilarga elektron shaklda o'zbek tilida mavjud va mavjud bo'lmagan yoki imloviy xatoliklar bilan qayd etilgan so'zlar beriladi. Ishtirokchilar so'zlar orasidan "ha", "yo'q" javoblarini tanlash orqali o'z lug'at zaxirasining darajasini ko'rsatadi (5- ilovaga qarang).

Yuqoridagi tamoyillar asosida olib borilgan tajriba-sinovlarda 146 nafar o'quvchi ishtirok etdi: 23 nafar 2-sinf, 61 nafar 3-sinf, 62 nafar 4-sinf o'quvchilari. Tajriba-sinovda normal ko'rish qobiliyatiga ega bo'lib, hech qanday nevrologik, somatik yoki ruhiy kasalliklar qayd etilmagan bolalar jalb qilindi.

O'tkazilgan tajriba-sinov Farg'ona viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasining 2024-yil 1-may 6/909-sonli xatiga asosan boshlang'ich sinf o'quvchilar o'rtasida Farg'ona shahrida joylashgan 6-, 4-, 22-, 8-, 45-umumta'lim maktablarida olib borildi.

Tadqiqotda qo'llangan tashxislash uchun testlar o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini kompleks baholashga qaratilgan bo'lib, unga 6 turdagi test kiritildi. O'qish tezligi va matnni tushunish darajasini baholaydigan "*DonoQiz-Uz*" milliy neyropsixolingvistik tashxislash testi yaratildi. Ushbu tadqiqotimizda "*LEAP-Q-Uz*", "*Raven*", "*KAPACIK*", "*LexUz*", "*CTT*" va asosan o'qish tezligi hamda matnni tushunish darajasini baholaydigan "*DonoQiz-Uz*" milliy neyropsixolingvistik tashxislash testining tahlili berilgan. Barcha o'rganish jarayoni 7 oy davom etdi. Tajriba sinov natijalari R – dasturida tahlil qilindi.

R – bugungi kunda statistik dasturlash uchun eng mashhur skript tillaridan biridir. 2010-yillarning boshidan beri R-dasturchilariga boʻlgan talab doimiy ravishda oʻsib bormoqda. R – haligacha maʼlumotlar olimlar orasida asosiy dasturlash tili maqomiga ega.

Toʻrtinchi bobning uchinchi fasli “*DonoQiz-Uz*” milliy neyropsixolingvistik tashxislash test natijalarini tahlil qilish va taʼlim jarayonida qoʻllash tartibi” jarayonini aks ettirgan. Tadqiqotda 101 nafar maktab oʻquvchilari (16 ta ikkinchi, 40 ta uchinchi, 45 ta toʻrtinchi sinflarning oʻzbek va rus guruhleri) qatnashdi. Oʻzbek va rus guruhleri (1-matn – “Dono qiz va kutilmagan voqea” va 2-matn – “Dono qiz va qoʻrqinchli yolgʻon”) testdan oʻtkazildi. Tadqiqotda ishtirok etgan barcha oʻquvchilarning koʻrish qobiliyati meʼyoriy boʻlib, hech qanday nevrologik, somatik yoki ruhiy kasalliklar qayd etilmagan.

“*DonoQiz-Uz*” (bir daqiqada oʻqilgan soʻzlar). Birinchi matn (ham oʻzbek ham rus, guruhleri bolalari oʻqidilar), N = 101. Test natijalari boʻyicha tahlil: 2-sinf: oʻquvchilar bir daqiqada oʻrtacha 39.9 ta soʻz oʻqishgan. Standart ogʻish (SD=19.3) yuqori, bu bolalar oʻrtasida oʻqishda individual farqlar katta ekanligini koʻrsatadi. Bu bosqichda fonematik eshitish va dekodlash jarayonlari hali toʻliq avtomatlashmagan boʻladi;

3-sinf: oʻrtacha koʻrsatkich 44.8 soʻzga oshgan, ammo standart ogʻish (SD=19.8) boʻlib qolmoqda. Bu sinfdan ham tarqoqlik yuqori, ammo kognitiv rivojlanish natijasida oʻqish tezligi ortish tendensiyasi kuzatiladi. Bu sinf bolalarining oʻqish texnikasida strategik oʻsish nuqtasi sifatida qaraladi;

4-sinf: oʻrtacha koʻrsatkich 64.1 soʻzga yetgan, (SD=23.3) – bu bosqichda bolalarning katta qismida avtomatlashgan ravon oʻqish va kognitiv ohangga asoslangan faol dekodlash qobiliyati shakllangan. SDning yuqori boʻlishi bilingval muhit yoki kognitiv rivojlanish surʼatlarining farqlari bilan izohlanadi.

Tadqiqotimiz natijasidan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, oʻqish tezligi-fonologik dekodlash, vizual eshitish motorikasi va nutqiy avtomatika bilan bogʻliq neyrokognitiv funksiyalar natijasidir. 4-sinfdagi koʻrsatkichlarning oshib borishi chap miya yarimsharining tilni qayta ishlashdagi rivojlangan funksiyalarini aks ettiradi⁶². Standart ogʻish (SD) yuqoriligi neyropsixologik jarayonlardagi individuallikni, masalan, fonologik ishlov berishdagi cheklanishlar, diqqat va yodda saqlash qobiliyatidagi farqlarni koʻrsatadi. (1-jadval)

1-jadval. “*DonoQiz-Uz*” milliy neyropsixolingvistik tashxislash testining oʻzbek va rus guruhlarida (bir daqiqada oʻqilgan soʻzlar). N = 101

Sinf	Mean (oʻrtacha)	SD (standart ogʻish)	Qatnashganlar soni
2	39.9	19.3	16
3	44.8	19.8	40
4	64.1	23.3	45

Shu bilan birga, “*DonoQiz-Uz*” milliy neyropsixolingvistik tashxislash testining oʻqilgan soʻzlar soni boʻyicha sinflar kesimidagi tahlili ANOVA usuli

⁶² Лурия А.Р. Высшие корковые функции человека и их нарушения при локальных поражениях мозга. – М.: Издательство Московского университета, 1962. – С.432.

orqali amalga oshirildi. Sinov natijalari 2-4-sinf o'quvchilari uchun o'rtacha o'qish tezligi juda farqli ekanligini ko'rsatadi. Ushbu farqning statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi F-statistika va p-qiyamat orqali tasdiqlandi. Bu jadvalda matndagi to'liq ma'noli so'zlarning harflar soniga ko'ra taqsimotini aks ettiradi. Ushbu tadqiqotimiz neyropsixolingvistik tahlil jarayoni, tilni qayta ishlashning kognitiv mexanizmlari haqida muhim tushunchalar beradi.

Xalqaro standartlar har qanday tashxis vositasi ishonchli (o'lchovlarda izchil va barqaror) hamda haqiqiy (aynan o'lchanishi kerak bo'lgan narsani o'lchaydigan) bo'lishini talab etadi. Testning ichki ishonchliligi Cronbach's Alpha orqali baholandi, bu savollarning maqsadga mosligini ko'rsatadi va ishonchlilik uchun kuchli dalil hisoblanadi.

Olib borilgan tahlil natijalari "DonoQiz-Uz" milliy neyropsixolingvistik tashxislash testining Latent tuzilishi nazariy modelga mos kelishini ko'rsatdi. Testning muvofiqlik ko'rsatkichlari (CFI \approx 0.91; TLI \approx 0.90; RMSEA \approx 0.03; SRMR \approx 0.04) qabul qilingan me'yorlarga yaqin qiymatlarni ko'rsatdi. (1-diagrammaga qarang).

Shu bilan birga, muqobil shakllar ishonchliligi bo'yicha Pirson koeffitsiyenti bo'yicha o'lchadik. Bir xil maqsadga ega bo'lgan, ammo savollari turlicha bo'lgan ikkita matn yaratilib, ularni bir xil guruhga berish orqali o'lchanadi. Agar natijalar o'xshash bo'lsa, test ishonchli hisoblanadi.

Bu diagrammada $r = 0.90$, juda kuchli korrelyatsiya (bog'liqlik) borligini anglatadi. Korrelyatsiya koeffitsiyenti $+1.0$ ga qancha yaqin bo'lsa, bog'liqlik shuncha kuchli bo'ladi. $r=0.90$ natija testning ikkala matni bo'yicha ham juda barqaror natijalar berayotganini ko'rsatdi. $p = 1.6e-36$: Bu p-qiyamat statistik jihatdan juda yuqori darajada ahamiyatli ekanligini bildiradi. Bizning korrelyatsiya tasodifiy emas, balki haqiqiy va ishonchli bog'liqlik ekanini isbotlaydi. Ushbu natijalar kuchli dalillardan biridir (2-diagrammaga qarang)

"DonoQiz-Uz" milliy neyropsixolingvistik tashxislash testining o'qish tezligi va tushunishga oid ko'rsatkichlari bo'yicha 2-4-sinflarda ta'lim oluvchi o'quvchilar uchun differensial diagnostik mezonlar ishlab chiqildi. Bu mezonlar har bir guruhda "Norma", "Disleksiya xavfi" va "O'qish buzilishi" toifalariga ajratiladi. Testga asoslangan o'qish tezligi va uzilish mezonlari neyropsixolingvistik tashxislash uchun aniq mezonlashtirilgan model hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, "DonoQiz-Uz" milliy neyropsixolingvistik tashxislash testi o'zbek tili muhitida nutq va til rivojlanishi buzilishlarini baholashda zamonaviy hamda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu esa ushbu sohadagi kelgusi tadqiqotlar va klinik amaliyotlar uchun mustahkam asos yaratadi (2-jadval).

2-jadval "DonoQiz-Uz" tashxislash testi uchun ishlab chiqilgan mezonlar tahlili.

